

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. YOZUVCHI IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI VA TARIX MAVZUSI	
1.1. Ijodiy individuallik omillar.....	8-12
1.2. XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy voqealar epik bayonda	13-18
1.3. Romanda tarixiy shaxslar talqini.....	19-30
II BOB. “TANGRI QUDUG‘I” ROMANIDA TARIXIY VOQEALARNING BADIY TASVIRI VA USLUB QIRRALARI	
2.1. “Tangri qudug‘i” romanida diniy-ilohiy tushunchalarning o‘rni.....	31-37
2.2. Arabmuhammadxon bilan bog‘liq voqealar tasviri.....	38-42
2.3. Abulg‘ozi Bahodirxon, Isfandiyor, Habash va Elbarslar xarakterida davr va shaxs munosabati ifodasi.....	43-52
UMUMIY XULOSALAR	53-56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	57-60

Kirish

Mavzuning dolzarbligi Milliy istiqlol tufayli keyingi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga e'tibor yanada kuchaydi. Xalq ruhini ifodalash, uning ma'naviy tiklanish va millat estetik ideallarining shakllanishini badiiy mujassamlashtirish milliy adabiyotlar oldida turgan asosiy vazifalardandir.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar jarayonida milliy ma'naviyat jamiyatda har tomonlama komillikka erishish tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qilib, "adabiyot va sa'hatga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"¹ badiiy adabiyot va ma'naviyatning, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotidagi benihoya ulkan o'rin tutishini yana bir karra tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviyat doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi".² Bunday talablar adabiy-badiiy jarayonga ham aloqadordir. Badiiy ijodda shakllangan yangicha tomoyillar jamiyat va inson tafakkuri rivojiga ko'ra tobora takomillashib, rang-baranglashib bormoqda. Milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi badiiy ijodda asosiy mezon aylangan hozirgi adabiy jarayonda so'z erkinligi, uslublar turfaligi yangicha qarashlarni, jahon adabiyoti tajribasidagi ijobiy jihatlarni ijobiy qabul qilib, yanada rivojlantirmoqda.

Yozuvchilar ana shu vazifani ado etishda o'z iste'dodlari ko'lamini, o'z uslublarining rang-barang qirralarini namoyish etmoqdalar. Yozuvchining uslubi va badiiy mahorati masalasi adabiyotshunoslikda hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan³. Uslub yozuvchining o'ziga xosligini ko'rsatadigan adabiy hodisa bo'lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017. – 4 авг.

²Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T., 2008. -B.171.

³ Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti,1992.-B.219; Karimov H. Janmi yoki uslub. - T.:Fan,1991.-B.56; N.Xudayberdiyev. O'z dunyosi,o'z qiyofasi. Adabiy o'ylar. -T.: Yosh gvardiya ,1986. -B.208; Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir.-T.: Fan, 1973.-B.116; Shukurov N.Uslublar va janrlar.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.-B.170; Boltabayev H. Nasr va uslub. - T.:Fan,1992.-B.105.

estetik ijtimoiy badiiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tadqiq etish yozuvchining ijtimoiy voqelik haqida, davr kishilari, ularning hayoti, faoliyati va o'y-kechinmalari to'g'risida o'ziga xos badiiy fikr yuritishni hamda poetik idrok etilgan voqelikni badiiy tahlil qila olishi xususida muayyan nazariy umumlashmalar qidirish imkonini beradi.

Badiiy adabiyotda uslub muammosi jahon, shu jumladan, o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy-nazariy jihatdan jiddiy tadqiq etilgan. Bu o'rinda H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, U. Normatov, M. Sultonova, A. Rasulov singari o'zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Yozuvchi uslubini aniqlashda badiiy asarning barcha unsurlari-g'oya, mavzu, obrazlar tizimi, sujet va kompozitsiya, til, janriy belgilar, ijodiy metod kabilar asos qilib olinadi. Demak, yozuvchi ijodiga keng qamrov bilan yondashish bir ijodkorning boshqa bir ijodkorlardan farqlanib turadigan o'ziga xos mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi.

O'zbek adabiyoti, shu jumladan, nasri bugungi kunda yozuvchilarimizning uslubiy izlanishlari natijasida yangi ijodiy pog'onaga ko'tarilmoqda. Shu sababli ham yangi adabiyotimizning boshlovchilari - Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilar bilan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, Shukur Holmirzayev, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam kabi bugungi o'zbek nasrining iste'dodli namoyandalari uslubi farqlanib, tahlilga tortilgan. Fitrat "Adabiyot qoidalari" kitobida mumtoz adabiyot vakillari bilan o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar uslubini farqlab ko'rsatadi.⁴ Ana shu tajriba asosida XX asr boshlarida ijod etgan adiblar uslubi bilan bizga zamondosh bo'lgan yozuvchilar uslubini farqlash lozim, degan xulosaga kelindi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak yozuvchi Erkin Samandarov hozirgi o'zbek nasrida uslubiy izlanishlar olib borayotgan ijodkorlardan biridir. Erkin Samandarov asarlari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami qanday talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik

⁴ Fitrat. Adabiyot qoidalari. -T.: O'qituvchi, 1995.-B.32.

mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi mazkur ishimizning dolzarbligini belgilashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-47-97-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2006-yil 25-avgustdagi PQ-451-son "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur bitiruv malakaviy ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilishi E. Samandarov ijodi adabiy tanqidchilikning diqqat e'tiborida bo'lgan. Jumladan, M.Qo'shjonov⁵, U.Normatov⁶, H. Abdullayev⁷, A.Samad⁸, N.Karimov⁹, Q. Yo'ldoshev¹⁰, I.Yoqubov¹¹ va boshqalarning tadqiqot, risola va maqolalarida ko'pgina yozuvchilar qatori E.Samandarov asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini to'g'risida ham ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Masalan, M.Qo'shjonov E.Samandarov bilan qilgan suhbatida yozuvchi ijodiga oid fikrlarni quyidagicha bayon qilgan:

⁵ Qo'shjonov M. Xiva suhbat. // O'z.A.S. 2005, 4 Fevral.; Qo'shchanov M. Shoir, dramaturg, romannavis. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2005.

⁶ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat, 2000. -B.61.

⁷ Abdullayev H. Xorazm adiblari. -Urganch:1998. -B.58.

⁸ Samad A. Erkin Samandarning oily martabasi. "Tangri qudug'i" romaniga so'zboshi. -T.: "Kamalak", "Xazina". 1996. -B.3-13.

⁹ Karimov N. Tarix va adabiy jarayon. Mustaqillik davri adabiyoti. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006. -B.55-68.

¹⁰ Yo'ldoshev Q. Mustaqillik davri nasri: tahlil va talqinlar. // O'ZAS. 2005. 20 May.

¹¹ Yoqubov I. Kompzitsion parallelizm usuli//O'zbek tili va adabiyoti. 2004. No5. -B.62-64.

“Bilaman, Xiva va xivaliklar hayoti “Tangri qudug‘i” romaningizda ham ko‘p tafsilotlar bilan aks etgan. Asaringizda bayon qilinganidek og‘ir paytlarda Arabmuhammadxonning Shamsiddin xojaga quloq berishi va ayni paytda xojaning ham unga bo‘lgan yuqori ehtiromi hukmdorlar bilan ilm ahlining do‘stligi naqadar katta kuchga ega ekanligidan dalolat berib turganday”, - deydi.

Adabiyotshunos U. Normatov o‘zining "Romanchiligimizning yangi ufqlari" degan maqolasida "Tangri qudug‘i" romani haqida fikr yuritir ekan, yozuvchining o‘ziga xos individual uslubini ko‘rsatish asosida chiqargan xulosalarini shunday umumlashtiradi: "...yozuvchi tarixiy shaxslar hayotini, tarix dramalarini butun dahshatlari bilan bor holicha gavdalantirgan. Bu asar tarixiy roman janri katta ma‘rifiy qimmatga ega ekanini, "xalqning chinakam tarixini tarixchilar emas, adiblar yaratadi" degan naqlning to‘g‘riligini yana bir karra tasdiqlaydi".

Professor H. Abdullayevning "Xorazm adiblari" to‘plamida adib ijodi xususida quyidagicha fikrlar keltirgan: "E. Samandar ijodidagi yangi bosqichda uning "Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq" va "Tangri qudug‘i" romanlari yaratildi. Birinchi roman zamonaviy mavzuda bo‘lib, inson va tabiat munosabatlari, muhabbat va qabohat muammolaridan bahs etsa, ikkinchi romanda XVI-XVII asrlarda Xorazm xonligida kechgan tarixiy voqealar qiziqarli hikoya qilinadi”. Bundan tashqari, Asror Samad "Tangri qudug‘i" romaniga yozgan so‘zboshisida adib ijodi o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida iliq mehr bilan fikr bildirgan: "E. Samandar Xorazm kuychisi bo‘lib namoyon bo‘lgan. Adib Xorazmning go‘zal bog‘lari, latofatli qizlari, cho‘ng yigitlari timsolida O‘zbekistonni madh etadi. Xorazm tashvishlari orqali butun o‘zbeklarning dardini kuylaydi. U aslida o‘zi tug‘ilib o‘sgan vohani beaded sevadi". Mazkur jumlada E.Samandarov asarlarida Xorazm va xorazmliklar alohida bir mehr bilan tasvirlanganligiga ishora qilingan.

Badiiy nasrdagi tub yangilanishlar E.Samandarov singari shakllangan tasvir uslubini o‘zgartirmagan adiblar ijodida ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lyapti. Bu haqida adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev o‘z maqolasida fikr bildirib o‘tgan: "U qadim tarix yoki bugungi kunda bo‘lib o‘tgan muhim voqealarnigina emas, ana shu voqealarda ishtirok etgan odamlarni ko‘ngil tebranishlari va ruhiy iztiroblarini

tasvirlashga ahamiyat bergan. U yaratgan asarlarda odam tarixiy hodisalarga qilingan ilova emas, balki o'sha hodisalarning ishtirokchisi bo'lgan betakror va o'ziga xos taqdir egasi sifatida ko'rsatilgan". Shuningdek N. Karimov, N. Rahimjonov va I.Yoqubovlar o'zlarining maqolalarida E.Samandarov ijodining ayrim qirralari to'g'risida ma'lumot berishga muvaffaq bo'lganlar.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari Bitiruv malakaviy ish oldiga qo'yilgan asosiy maqsad Erkin Samandarovning "Tangri qudug'i" romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin munosabatlarini tadqiq etish bitiruv malakaviy ishning maqsadini tashkil etadi. Shuningdek, "Tangri qudug'i" romanini tahlil etish asnosida uning o'ziga xos ijodiy uslub va badiiy mahoratini ko'rsatishdan iboratdir.

Yozuvchining individual uslubini ko'rsatish uchun uning romanlaridagi qahramonlar obrazining yaratilishiga alohida ahamiyat berildi. Bu yo'nalishda:

- E.Samandarovning "Tangri qudug'i" romanining yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik ma'naviy-ruhiy omillarga diqqat qaratish;
- XVII asrdagi Xorazmda ro'y bergan yirik ijtimoiy voqealar epik bayonda haqqoniy tasvirlanganligini ko'rsatib berish;
- Arabmuhammadxon obrazini to'laqonli yaratishdagi adib mahoratini ko'rsatish;
- Abulg'azi Bahodirxon va Isfandiyor hayotlariga oid tarixiy faktlar va badiiy to'qimaning adabiy obraz yaratishdagi o'rnini aniqlash;
- Anusha-Nigina, Davlatyor , bashoratchi Shamsiddin xoja, Habash va Elbars sultonlar xarakterida davr va shaxs munosabati masalalarini yoritish
- E.Samandarovning "Tangri qudug'i" romanining badiiy-uslubiy, til xususiyatlarini kuzatish;
- hozirgi zamon o'zbek nasri tadqiqotida E.Samandarovning o'rni, mahorati, uslubi masalalariga oydinlik kiritishga urindik.

Shuningdek bitiruv malakaviy ishda E.Samandarovning "Tangri qudug'i" romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin, g'oyaviy niyat va badiiy shakl,

adibning tarixiy mavzuga e'tibori kabi masalalarni o'rganish asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi.

Tadqiqot manbalari Ushbu bitiruv malakaviy ishimizga Erkin Samandarovning "Tangri qudug'i" romani tahlilga tortildi. Tahlilga tortilgan asar yozuvchi ijodini tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalasi bilan bog'lab o'rganishga to'la imkon beradi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishda Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asari, yozuvchiga zamondosh bo'lgan adiblarning nasriy asarlari muqoyasa uchun tadqiqotga jalb qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Erkin Samandarovning "Tangri qudug'i" romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalalarining ilk bor alohida planda olib o'rganilishi bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligini belgilaydi. E.Samandarovning individual uslubi, xususan, uning romanchilikdagi badiiy uslubiy izlanishlarini maxsus tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri edi va biz imkoniyat doirasida xuddi shu masalani maxsus tadqiqot orqali o'rgandik.

Tadqiqotning metodologik asoslari va usullari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlari ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Masalani yoritishda hozirgi kunda o'zbek adabiyotshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlardan, xususan, I.Sulton, O.SHarafiddinov, B. Nazarov, I.Haqqulov, U. Normatov, N. Karimov, S.Sodiq, I.G'afurov kabi qator olimlar ilmiy hamda adabiy tanqidiy asarlaridagi mulohazalaridan foydalandik.

Tadqiqotning tuzilishi Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 59 sahifadan iborat.

I BOB. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi va tarix mavzusi

1.1. Ijodiy individuallik omillari

Ijodkorning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga intilish hamisha adabiy tanqidchilikdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki ijodiy individuallik san'atkor merosining abadiyligini belgilovchi bosh mezondir.

Erkin Samandar shoir, dramaturg, romannavis sifatida o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ijodkordir. Yozuvchining faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u dastlab Xorazm viloyati radiosida va "Xorazm haqiqati" gazetasi tahririyatida, O'zbekiston televideniyesida ishlagan, Xorazm viloyat partiya qo'mitasida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari kabi vazifalarda faoliyat yurgizgan. Shoirning birinchi she'riy to'plami 1960 yilda "Amu jilolari" nomi ostida nashrdan chiqqan. 1970 yilda "Osmon to'la nur" nomli ikkinchi she'riy to'plami e'lon qilindi. Shu tariqa uning o'n to'rtta she'riy to'plami, o'n beshta doston, bir qancha badialari, ocherklari, qissa va romanlari ketma-ket chop etildi. Uning she'rlari, dramalari, qissa va romanlari o'ziga xos badiiyati, til va ifoda tasviri, hech qaysi adibnikiga o'xshamaydigan persanojlari bilan davr adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Erkin Samandar o'ttizdan ziyod kitoblar muallifi. Uning pyesalari teatrlarning sahnalarida qo'yildi va hozirgi kunda ham muvaffaqiyatli o'ynalib kelinmoqda. Badiiy jihatdan barkamol nasriy asarlari hisoblangan roman va qissalari kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Uning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati ham hammaga ma'lum. Adib ijodi va ijtimoiy faoliyati haqida ko'p fikrlar bildirish mumkin

XX asr o'zbek adabiyotida ham jahon adabiyotida ham tom ma'noda nasr asri bo'ldi. Dunyoning eng muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy muammo va fojealari keng qamrovli, serqirra nasrda o'z aksini topdi. Shu boisdan ham mazkur ishimizda XX asrning mustaqillikdan keyingi o'zbek nasri hamda adabiyotshunosligida kam o'rganilgan Erkin Samandarov ijodini asos qilib oldik.

Yozuvchining ijodkor sifatida, yetuk san'atkor sifatida shakllanishida tug'ma iste'dodning roli ayniqsa ko'pdir. Iste'dod ijodiy imkoniyatlar yig'indisi, shaxsiy qobiliyatining ifodasi tarzida namoyon bo'ladi¹². Biroq uning ro'yobga chiqishi, kamol topishi shart-sharoit bilan bog'liqdir. Tabiiyki, iste'dodning shakllanishi va tarbiyalanishida ijodkor tug'ilib o'sgan muhit, etnogenezis, hatto bolalikdagi taassurotlar, keyinchalik boshidan kechirganlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham haqiqiy ma'noda kamol topgan iste'dodni o'z zaminidan uzib tekshirib bo'lmaydi. Tug'ilib o'sgan muhit yozuvchining shaxsiyatiga muayyan ma'noda ta'sir qiladi va ayni paytda, badiiy asar shaxsiyatini ma'lum darajada o'zida namoyon etadi. Erkin Samandarov Xorazmda tug'ilgan va unda xorazmliklarga xos xislatlar yorqin ko'rinadi. Ayni paytda adib qahramonlaridagi Xorazm xalqiga xos g'ayrat-shijoat, yozuvchi asarlarida tasvirlangan gavjum shahar hayotiga moslashgan qishloqliklar xarakteridagi bir so'zlilik, haqqoniyparastlik u yaratgan timsollardagi samimiy odamlarga xos jihatlarda adib shaxsiyatidagi alohida belgilar namoyon bo'ladi.

Ijod har bir qalamkash uchun individual kechadigan jarayon bo'lganligi bois, har qaysi yozuvchining ish uslubi, voqelikdan ta'sirlanishi turlicha bo'ladi. 80-yillardagi ijtimoiy hayotga, adabiyotga, san'atga kirib kelgan o'zgarish va yangiliklar shu davrga mansub adiblarni ta'sirlantiruvchi omildir, shu jumladan, Erkin Samandarov ijodida ham bu narsani yaqqol ko'rishimiz mumkindir. Adib ijodidagi o'ziga xosliklarning paydo bo'lishiga xizmat qilgan omillardan biri ijtimoiy hayotdir. Chunki e'tibor bilan qaraydigan bo'lsak adabiyot tarixida hamisha dolzarb muammolar, ilg'or qarashlar aks ettirilgan asarlar, ijtimoiy hayotda to'ntarish sifatida baholanadigan muhitda paydo bo'lgan adabiy jarayon mahsullari g'oyaviy-badiiy mukammal asarlar namunalari sifatida ko'zga tashlanadi. Adibning biz tadqiq qilayotgan "Tangri qudug'i" romani ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Jamiyat taraqqiy etar ekan, undagi siljishlar, o'zgarishlar adabiyotga ta'sir o'tkazib turadi. Ijtimoiy hayotning in'ikosi o'laroq adabiyot ham

¹² Davronova SH. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. Filol. fanl. nomz. disss. avtoref. –T, 2004. - B.9.

yangicha mavzu, mazmun, shakl va g'oyalar hisobiga boyib, yangilanib boraveradi. Har qanday davr adabiy jarayonning o'ziga xos yetakchi taraqqiyot tamoyillari xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, tarixiy, milliy, ma'naviy darajasi jamiyatning umumiy qonuniyatlari, boshqaruv tizimi, adabiyot tarixining badiiy-estetik tajribalari kabi omillarga bog'liq holda paydo bo'lib rivojlanadi.

80-90-yillar adabiy jarayonida nasrning o'rni katta bo'ldi. Davr nasri janriy nuqtai nazardan ham, mavzu jihatidan ham ancha boyidi va dolzarb muammolar maydoniga aylandi¹³. Bunga sabab, biroz bo'lsa-da, erkin fikr aytish imkoniyatining tug'ilganligi bo'ldi.

Erkin Samandarov Xorazm tarixi bilan bog'liq uzoq izlanishlarning samarasi bo'lgan "Ajdodlar qilichi", "Tangri qudug'i" singari asarlari bilan respublika kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan shoir, dramaturg va nosirdir. Uning ijodini sinchiqlab kuzatsak, mazkur mavzuda "Polvon ota" nomli qasida hamda, "Suyanch" nomli qissa yozganligining guvohi bo'lamiz¹⁴. Bu ikkita asarni o'n yillik muddat bir- biridan ajratib turadi. Shoir o'ttiz yildan oldinroq esa "Xorazm farzandiman" qasidasida:

Pahlavon Mahmud so'zin yod,
Oldi Mashriq Mag'ribi.
Mashriq-u Mag'ribda mashhur,
O'lkaning farzandiman!!!

deb baralla jar solgan edi. Ajab! Nega uning ko'ngli hamisha shu'la yanlig'larga talpinadi? E.Samandarovning ruhiyat kengliklari fayzli karomatlaridan bahra olib, besarhad bir hayrat og'ushida qalam tebratishining boisi nimada?

Avvalambor, uning ko'ngliga ezgu niyatlarning urug'i tushib, unib-o'sgani, muborak orzularining ro'yobga chiqishi Oллоh taoloning marhamatidandir.

Ikkinchidan, yurt tinchligi, el osoyishtaligi, mo'min- musulmonlarning dillarini iymon nurlaridan bahramand etmoq istagi tufaylidir.

¹³ Normatov U. Adabiy jarayondagi g'aroyib robitalar // O'z.AS., 1995, 3 noyabr.

¹⁴ Samandarov E. Sevgi fasllari.Saylanma. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. –B144. Samandarov E. Suyanch.To'plam. –Xiva, Xorazm Ma'mun akademiyasi nashri, 2000.

Uchinchidan, o'tganlarning oxiratini obod bo'lmog'ini chin dildan istash, Vatan deb jangga kirganlarni, muqaddas tuprog'imizdan bosqinchilarni haydab chiqarmoq istagida barqaror turganlarni, intiqom o'tida yonganlarni astoydil ulug'lash istagi tufaylidir.

To'rtinchidan, ahdi musulmonning ko'ksi baland, dili obod, yurti ozod bo'lishi uchun dilidagi mutelik tuyg'ularini barbod etmoq niyatidandir.

Beshinchidan, har bir qarich yerida shahidlar xoki yotgan muqaddas yurtimizning asrlar, ming yilliklar davomidagi istagi bo'lgan hurriyatga erishuvini astoydil xohlashi, unga o'zining zarracha bo'lsa-da ulushini qo'shish niyati tufaylidir.

Anglashiladiki, Erkin Samandarov tarixga o'zi yashayotgan zamonasi, davri voqea-hodisalari zamiridan turib nazar tashlaydi. Tarixni buzib ko'rsatmaslikka, o'z istagiga buysundirmaslikka, ideallashtirmaslikka, inkor etmaslikka harakat qiladi. Xalqimiz tarixining nurli sahifalarini tashkil etuvchi ota-bobolarimizning ezgu amallari, ilmu donishlariga ulkan mehr bilan munosabatda bo'lish orqali avlodlar tafakkurini nurlantirishga urinadi. Adabiyot va san'at zimmasidagi muqaddas vazifani shu sohaning kamtarin bir vakili sifatida dildan his qiladi. Bizni ham tariximizning asl bahosini xolis berishlikka da'vat etadi.

Erkin Samandarov ijodini kuzatsak tarixiy mavzuga ko'proq murojaat qilinganligini ko'ramiz. U o'zi tug'ilib o'sgan voha-Xorazm tarixini, shu tuproq o'tmishini "Shuhratini olam bilguvchi" ko'hna vohani "Dong'ini men ham jahonga kuylabon aytgim kelar" ("Xorazm farzandiman"), deya cheksiz bir faxr va ishtiyoq bilan o'rganadi. Ko'z ochgan zamin o'tmishiga qiziqish ishtiyokining zo'rliги avvalambor ruhiy yaqinlik tufaylidan bo'lsa, ikkinchidan, farzandlik burchini teran his qilish sababli bo'y ko'rsatadi va zinhor boshqa xalqlar tarixiga bo'lgan hurmat-ehtiromni inkor qilmaydi.

Demakki, yuqorida nomlari sanalgan asarlar tug'ilgan maskanga bo'lgan beqiyos mehrning natijasi o'laroq maydonga kelgan. E.Samandarov o'z tafakkurini yo'rgaklagan, tuyg'ularini tarbiyalagan, voyaga yetkazgan, zamon va xalq xizmatiga kamarbasta qilgan yurti, xalqi tarixining har bir nurli sahifasining

zamondoshlarining nazariga tushishga intiladi. Shubhasiz, u mazkur mavzuda o'zigacha qalam tebratgan kishilarning asarlarini sinchkovlik bilan o'rgangan, qaysidir jihatlarini ma'qullash barobarida nimadandir qoniqmaslik tufayli qo'liga qalam olgan. Bundan tashqari 80-90-yillar o'zbek nasrida mavjud tuzum illatlarini fosh qilishga intilish, iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda yuzaga kelgan muammolarni ko'tarish, milliylikka urg'u berish tamoyillari kuchayganligini kuzatish mumkin.

Erkin Samandarovning romanlarining yozilishiga ham aynan shu omillar sabab bo'lgan. Mazkur romanda biz tanqid ruhining o'ziga xos ifodasini kuzatamiz. Adib kishilarni qiynayotgan dolzarb hamda jiddiy e'tiborini tortayotgan chigal voqea-hodisalarni badiiy in'ikos ettirishga diqqat qaratgan. Mazkur asarda kuzatganimizdek, hayotni qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash yozuvchining asosiy tasvir prinsipidir. Bu, birinchidan, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, bu o'zgarishlarning adabiyotdagi aks-sadosi, adabiyot taraqqiyotining muayyan tarixiy davrdagi o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bevosita yozuvchining individual uslubiga borib taqaladi.

Ushbu asarda asosiy muammo noqis jamiyat hamda unda yashovchi inson, shu insonning murakkab ruhiy olami, murakkab xarakteri va murakkab xatti-harakatlaridadir. Hayot murakkab. Unda turli-tuman hodisalar bor. Ammo adabiyot va san'at doimo bu murakkabliklarni insoniylik tarozisida ushlashni talab etadi. Biroq har bir haqiqiy ijodkorning o'z o'lchov toshi, o'z o'lchash yo'li va bosh taroziga zid bo'lmagan shaxsiy o'lchami bo'ladiki, bu biz e'tibor qaratayotgan o'ziga xos uslubning eng muhim qirrasini tashkil etadi.

1.2. XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy voqealar epik bayonda

Tarixiy roman janrining bir necha turlari bor. Ular mavzu jihatdan tarixiy biografik, tarixiy etnografik, tarixiy-maishiy va boshqa turlarga bo'linadi. Tarixiy romanlarni yaratishda yozuvchilarning qo'llagan usullari, tarixiy faktlarga munosabatlari jihatida ham tarixiy romanlar bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, umumiy tarixiy fonni asosga olib, yozuvchi fantaziyasida yaratilgan voqealarni

tasvir qiluvchi tarixiy romanlar va konkret tarixiy shaxs yoki ayrim tarixiy voqeaga bag'ishlab, butunligicha shuni tasvir qilishga bag'ishlangan tarixiy romanlar. Tarixiy romanlarning bu turlari o'zbek adabiyotida mavjud. E.Samandarovning "Tangri qudug'i" romani birinchi guruh tarixiy romanlar sirasidan bo'lib, unda umumiy tarixiy fon qo'ynida yozuvchi fantaziyasining mevasi hisoblangan voqealar sodir bo'ladi, adabiy personajlar harakat qiladi. Ushbu asarda XVII asrdagi Xorazmda ro'y bergan yirik ijtimoiy voqealar, muhim muammolar tilga olingan va fantaziyaga, badiiy to'qimaga erk berilib, muvaffaqiyat bilan tarixiy faktlarga izchil yondashgan holda voqealar tasvirlangan. Darhaqiqat, adabiy faktlar shuni ko'rsatadiki, mutlaqo yozuvchi fantaziyasiz umuman badiiy asar, shu jumladan tarixiy roman bo'lmaganidek, tarixiy faktlarga, materiallarga mutlaqo murojaat qilmagan tarixiy roman ham yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Hamma gap tarixiy roman muallifi bu ikki elementdan - tarixiy fakt va fantaziya, badiiy to'qimadan mohirlik bilan foydalanishiga va badiiy asar to'qimasida ular tanosibligini, me'yorini saqlay bilishiga bog'liq¹⁵. Bu masalada tarixiy roman muallifi zimmasiga alohida mas'uliyat tushadi. Agar umuman yozuvchi fantaziyaga istaganicha erk berib, xohlaganicha va kerak bo'lganicha badiiy to'qimalar yaratib, o'z asarini bezasa, tarixiy roman muallifi bunday qilolmaydi, u tarixiy davr xususiyatlari, tarixiy voqea sharoiti bilan ma'lum darajada cheklangan, ularni hisobga olib, ish ko'rishga majburdir. Shundan tarixiy romanlarda badiiy to'qimaning o'rni va me'yori masalasi kelib chiqadi. Badiiy to'qimaning tarixiy asardagi miqdori va chegarasi masalasining aniq belgilab bo'lmaydi. Lekin, umumiy qoida shuki, badiiy to'qima tarixiy haqiqatga, tarix mantiqiga zid tushmasligi kerak. P. Qodirovning tarixiy romanlar ustidagi ijodiy tajribasidan kelib chiqib aytgan bir so'zi bor, "asrlar kitobini o'qiganingiz sari, - deb yozadi adib, - tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojealar, alohida yozuvchining fantaziyasi bilan yaratib bo'lmazligiga ishonch hosil qilasiz"¹⁶.

¹⁵ Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent :G'G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.-B.56.

¹⁶ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Manaviyat, 2000. –B.109.

"Tangri qudug'i" romanida yozuvchi fantaziyasi - badiiy to'qima mahsuli bo'lgan o'rinlar, yo'nalishlari ko'p: Anusha-Nigina va Davlatyor sarguzashtlari, bashoratchi Shamsiddin xoja, Bo'rizod it bilan bog'liq hodisalar, Xiva shahri, tangri qudug'i bilan aloqador va boshqa ko'plab voqealar qiziqish bilan o'qiladi. Biroq asardagi eng hayajonli, maftunkor o'rinlar "tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojealar, sujetlar"dir. Arabmuhammadxon va uning noqobil farzandlari - Habash va Elbars sultonlar orasida onalari Gulsumbonu holi bahonasida boshlangan o'zaro nizo, oshkora kurash va qonli intiqom, Arabmuhammadxonning taxtidan chetlatilishi, ta'qib ostiga olinishi va nihoyat ikki ko'ziga mil tortilishi: ikki nobakor o'g'lonning fojeali qismati - Elbarsning tiriklayin yerga ko'milishi, Habashning qutirib chekkan azoblari, u tushgan panjarali arava bilan birga o'tga yokilishi, shuningdek, mustabid shoh Abbosning poygada adolatsizlik qilgan o'g'li Safo Mirzoni o'limga mahkum etilishi - romanda qalamga olingan bu kabi hayajonli, dramatik tarixiy voqealarni haqiqatdan ham yozuvchining fantaziyasi yaratishi qiyin, judayam qiyin. Xullas, yozuvchi tarixiy shaxslar hayotini, tarixiy dramalarni butun dahshatlari bilan badiiy to'qimalardan unumli foydalangan holda tasvirlagan.

Ma'lumki, hayotda turlicha qimmatga va ahamiyatga ega bo'lgan faktlar uchraydi. Tarixda ham shunday. Jamiyat hayoti uchun, tarix oqimi uchun xarakterli bo'lmagan, kam ahamiyatli faktlar va tarixni tashkil qiluvchi, jamiyat hayotining mohiyatini belgilab beruvchi faktlar. Mana shu ikkinchi turli faktlar jiddiy tarixiy romanlardagi badiiy to'qima uchun asos hisoblanadi.

Abulg'azi Bahodirxon qalamiga mansub "Shajarai turk" tarixiy asarining "Arabmuhammadxonning shahid bo'lgani va Asfandiyorning xon bo'lganining zikri" deb nomlanuvchi qismida quyidagicha jumlar keltirilgan. "Boqirg'on ostonasinda Sayid Ota avlodindin bir kishi bor erdi. Nazar xoja derlar erdi. Elbars sulton aning qizin oldi. Ul yolg'onchi, qalbi ayyor, sipohgarlikning ba'zi qoidalaridin uquvi bor erdi... Shul kunlar xalqning barchasi otlanib Asfandiyor sultonning kelgani yaxshi bo'ldi, otasini bilmagan zolimlardan xudoy qutqazdi, deb guruh- guruh Asfandiyor sultonga kela erkandur. Nazar xoja uch yuz, to'rt yuz

kishini o‘zi birlan olib kelib, elning Asfandiyor sultonga ko‘makka kelaturg‘on ulug‘ yo‘lining ustinda daryoning labinda tushub, bir tarafi daryo yana bir tarafga o‘tkazibdi. Piyoda va otli o‘tmasdan Asfandiyor sultonga ko‘makka kelaturgan kishining va ba‘zisini so‘z birlan va ba‘zini zo‘r birlan o‘zini qo‘shib aytibtur. "Xudoy ko‘rsatmasin Asfandiyor sulton yurt olsa erkagingizni o‘lturur va urgachingizni Abo‘lxon va Manqishloq turkmaniga buyurur. Ul o‘lja qilib olib ketar. Agar mening so‘zimdagi yolg‘on bo‘lsa, tangrining kalomi ursin meni", - deb, har kishining oldinda Qur‘ondin bir ont ichibtur"¹⁷.

Yuqorida keltirgan parcha "Shajarai turk" asaridan olingan faktdir. E.Samandarovning "Tangri qudug‘i" romani 215-betida keltirilgan voqealar tafsiloti xuddi ana shu dalilga binoan bitilgan "... Shunday deya Nazarxoji Qur‘onni qo‘liga olib ont ichdi. Kelib chiqishi Sayd ota avlodidan bo‘lgan, asli avliyo yurt- boqirg‘onlik nufuzli otaliqning Kalomullohdan ont ichishi jadalga minib turgan navkarlarning terini sovutdi". "Xivadan Habashlar yetib kelguncha Isfandiyorga egilgan navkarlarni ushlab turishini hayot-mamot ishi deb bilgan Nazarxoji dargohdagi sipohdorni, Habash va Elbars tarafdorlarini zudlik bilan o‘z atrofiga to‘pladi"¹⁸

Yuqorida keltirilgan tarixiy fakt tadqiqot obyektimiz bo‘lgan "Tangri qudug‘i" romanining ba‘zi voqealardagi badiiy to‘qimaga asos bo‘lgan. Tarixiy romanlar muallifi tarixiy voqealarni o‘zicha to‘kib chiqarishi yoki to‘kib chiqazilgan soxta voqealarni tarix deb talqin qilishi mumkin emas. Tarixning o‘z temir qonuni va buzilmas mantiqi bor. Yozuvchi o‘z ishida tarixning mana shu mantiqan, qonuniyatidan chetga chiqmasligi kerak aks holda asar o‘z qimmatini va ahamiyatini yo‘qotadi. "Umuman olganda tarixiy roman muallifi badiiy to‘qimaga, fantaziyaga, ma’lum darajada huquqli bo‘lsa-da, lekin farishtani shayton, shaytonni esa farishta deb ko‘rsatishga haqqi yo‘q"¹⁹, - deydi adabiyotshunos olim G‘. Karimov.

¹⁷ Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk. -T.: "Cho‘lpon", 1992.-B.166.

¹⁸ Samandarov E. Tangri qudug‘i. -T.: "X azina", 1996. - B.215.

¹⁹ Karimov G‘. Prozamizda tarixiy tematika. // Sharq yulduzi. -T., 1979. No-3. - B.199.

"Tangri qudug'i" romanini tahlil qilar ekanmiz, adib bu muammoni muvaffaqiyatli hal qilganini ko'ramiz. Anusha-Niginaning boshidan kechirgan voqealari, Xo'jamberdi va Enamoylarning sevgisi va Enamoyning ayanchli taqdiri, buxorolik Murtazobeklar oilasining Abo'lg'ozini taqdiriga birmuncha ta'sir o'tkazishlari, Zikriyo begimning hiyla-nayranglari va boshqalar yozuvchi fantaziyasining mahsuli sifatida hayotiy chiqqan. O'z mazmuni va mohiyati bilan ular tarix mantiqig'iga zid bormaydi, aksincha asar g'oyaviy- badiiy yo'nalishiga to'kislik, mukammallik bag'ishlab turadi. Erkin Samandarov shunday badiiy to'qimalardan unumli foydalanib muvaffaqiyatli badiiy obrazlar yarata olganini ko'ramiz. Tarixiy romanda badiiy to'qima masalasiga oid qoidaning yana bir muhim nuqtasi shuki, badiiy to'qima tarix mantiqiga, hayotiy haqiqatga mone' kelishidan tashqari badiiylik qonuniyatlariga ham rioya qilishi shart. Badiiy asar voqealarida tabiiyki, tasvirda samimiyat, kompozitsiyada yaxlitlik va butunlik badiiylik qonuniyatining muhim elementlari hisoblanadi.

Ma'lumki, tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilish yozma adabiyotning muhim qirralaridan biri bo'lib, asarda tasvirlanayotgan davrga xos va axloqiy boyligini insonparvarlik hamda hayotiylik jabhalaridan turib, ko'p qirrali tasvirlash imkonini beradi. Suje to'qimasida bunday yo'l tutish qahramonlar taqdiri, ularning o'zaro murakkab munosabatlari, ichki kechinmalari olamiga chuqur kirib borish, badiiy to'qimada davr va jamiyat haqiqatini teran ifoda etish garovidir. Zotan, badiiy to'qima imkoniyatlari tarixiy shaxslar obrazlarini butun murakkabligi bilan ko'rsatish to'laqonli adabiy tip darajasida tasvirlash mushkulligini yozuvchi chuqur his qiladi. To'qima davr haqiqatini keraksiz chizgilardan tozalash, badiiy tasvir ko'lamini kengaytirish, epik bayonni ta'sirdor shaklga solishga yo'l ochadi.

Yozuvchining tarixiy ma'lumotlarga munosabati xususida adabiyotshunoslikda ko'pgina fikrlar bildirilgan. Xususan, A.Kattabekov "o'zbek tarixiy romanining bosh xususiyati uning real tarix bilan hamohangdir",²⁰ -deb yozgan bo'lsa,

²⁰ Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. -T., 1992. -B.9-10.

Y.Murodov "tarixiy hujjat, umuman olganda, tarix haqiqatiga tarfakash yondashishi ham badiiy asarga putur yetkazadi"²¹, -deb hisoblaydi.

Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha Asfandiyor sultonning o'z inilari Habash va Elbarslar ustidan galaba qozonib, taxtni qaytarib olishida unga Shoh Abbos moziy yordam bergan. Bu xususda Abulg'ozining "Shajarai turk" asarida keltirilishicha: "Shoh Abbos moziy Asfandiyor sultonga Xuroson etakiga bor, yurtningni talab qil, deb ruxsat berdi. U Durun keldi. Andin Abo'lxon tog'ina bordi. Taka va sariqlin yetmish kishi, yovmutdin o'n kishi qo'shuldi. O'zuning uch yuz navkari bor erdi. Ul vaqta Habash sulton Amu suvi, qiblaning tarafinda Tus qal'asining ro'barasinda ulturub erdi. Yarim kechada kelib Habash sultonning evin bosti"²², - deyiladi. "Tangri qudug'i" romanida muallif bu fikrlarni Abulg'oz Bahodirxon qilish bilan cheklanib qolmaydi, uni xayolan boyitadi, tarixiy ma'lumotning yashirin mag'zini chekadi. Ana shu tarixiy dalil vositasida davr haqiqatining mohiyatini xarakterlaydigan voqealarni to'kib, badiiy tasvirni kuchaytiradi. Asfandiyor sulton haj ziyoratiga borish uchun safarga chiqqanida Habash buyrug'i bilan uni o'ldirmoqchi bo'ladilar. Asarda to'qima obraz Xo'jamberdi bu suiqaqdni ro'y berishiga halaqit beradi. Natijada Asfandiyorning hayoti saqlab qolinadi. Shundan keyin haj safari qoldiriladi va Asfandiyor shoh Abbos moziy huzuriga yordam so'rab borishini o'ylab qoladi. Ushbu voqea asarda quyidagicha tasvirlangan. "Isfandiyorning yodiga Isfaxon keldi. Bobosi Xoji Muhammadxon otasi Arabmuhammadxon bilan bolaligida Isfaxonga-shoh Abbos moziy oldiga yovdan qochib borishgan edi. Xivani istilo etgan Buxoro amiri Abdullaxon tazyiqidan imdod so'rashganida shoh Abbos ularning qo'llab-quvvatlagan, yana kelib taxtni egallashlariga yordam bergan edi. Tag'in shoh Abbosga bosh egib borishga to'g'ri keladi. Madad so'ralsa yo'q demas. Tong otmasidan xizmatkorlar o'choqqa o't yoqdilar. Yonma-yon ikki o'rinda yoqilgan gulxan tillari ko'kka uriladi. Bomdod namozidan keyin Isfandiyor gulxanga keldi. Xo'jamberdi navkar, xizmatkorlar o'rinlaridan turib salomga bosh egdilar".

²¹ Murodov G'. Tarixiy romanda hujjatlilik // O'zbek tili va adabiyoti . 1989, №5-6 .B.22.

²² Abulg'oziy Bahodirxon .Shajarai turk. -Toshkent: "Cho'lpon", 1992.-B.162.

"Isfandiyor sulton Isfaxonga tunda kirib bordi. Darvozabon shahzodani mahtal qilmadi. Ikki mulozim uni Ali qopi qasri sari boshladi. Yirik-yirik yulduzlari, milt-milt chiroqlari dilni allalaydigan tungi Isfaxon. Bolaligida chiroylari qalbiga muhrlanib qolgan tog'li, gulli, jilg'ali manzaralar"²³.

Ko'rinadiki, davr haqiqatini o'zida mujassamlashtirgan har bir tarixiy ma'lumot badiiy to'qima uchun asos vazifasini o'taydi va sujet rivoji davomida yanada to'ldirilib, ta'sirchan voqelikka aylanadi. Ayni shu yo'l bilan tarixiy haqiqat yuksaklikka ko'tariladi. Badiiy ijod jarayonida yozuvchining xayol erkinligi, ijodiy fantaziyasi juda katta kuchga ega bo'lib, bu tarixiy voqelikning poetik talqinida ham muhim rol o'ynaydi. Badiiy to'qima vositasida tarixiy voqealar saralanadi, davr ruhini bera oladigan tipik voqelik asarga olib kiriladi. Tarixiy shaxslar xarakterining ba'zi bir tomonlari o'sha davr haqiqatlaridan kelib chiqib, umumlashtiriladi, to'ldiriladi, boyitiladi. Shu tariqa tarixiy haqiqat va badiiy talqin mutanosibligi yuzaga keladi.

"Tangri qudug'i"da o'quvchi o'tmish hayotning tinmay o'zgarib borayotgan qirralarini ko'radi, davr ziddiyatlarining guvohi bo'ladi. Tarixiy voqealarni o'zgarimas, turgun holda emas, balki doimo o'zgarib boradigan holda tasvirlanishi hozirgi kunimiz uchun ahamiyatlidir. Muhimi shundaki, muallif o'tmishning fojiali sahifalari aks ettirilgan bu xil asarlarda qadimda shunday bo'lganini ko'rsatish bilangina kifoyalanmaydi, balki kechaning zamiridan bugunning ildiz -u belgilarini qidiradi va topa biladi. Erkin Samandarov asarlariga alohida ta'sirchanlik baxsh etadigan asosiy jihat shundan iboratdir.

1.3. Romanda tarixiy shaxslar talqini.

Adabiyotimizdagi tarixiy romanlarning diqqatga sazovor muhim xislatlaridan biri ularning ulug' tarixiy shaxslar qiyofasini - obrazini yaratish borasida erishgan ijodiy g'alabasidir. Ma'lumki, tarixiy shaxslarning haqqoniy va to'laqonli obrazini chizish, qiyofasini tiklash birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Adabiyotda ular obrazi ba'zan ideallashtiriladi, ba'zan keragicha

²³ Samandarov E. Tangri qudug'i. -T.: "Xazina", 1996. -B.113.

baholanmay qoladi. Holbuki, ulug' tarixiy shaxslar hamma vaqt, juda murakkab sharoitda yashab faoliyatda bo'lganlar, o'z zamonasining og'ir, tarixiy muammolarini hal etish, mardonavor kurash olib borganlar. Ularning hayoti kurashlarga, dramatik voqealarga boy. Shuning uchun ulug' tarixiy shaxslar hayotini tasvir qilganda erkin rivojlanib boruvchi sujet chizig'i bilan, bir rangdagi bo'yoq bilan qanoatlanib qolish to'g'ri bo'lmaydi. Ulug' tarixiy shaxslar hayoti doimo harakatda, yuksalishda, faoliyati esa serqirra, rang-barang bo'ladi. Shu jihatdan nasrimizdagi tarixiy romanlarga nazar tashlasak zo'r mamnuniyat bilan, unda katta ijodiy yutuqlar borligini Abulg'ozil Bahodirxon qilishga to'g'ri keladi²⁴. Shu jumladan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Erkin Samandarov ijodidan olib qaraganda uning "Tangri qudug'i" romani fikrimizni isbotlaydi. Bu roman uchun xarakterli xususiyat shuki, unda XVI asr oxiri, ko'proq XVII asrda qadimiy Xorazm tarixidagi ro'y bergan voqealar qalamga olingan. Asarda ushbu davr tarixiy sharoiti to'liq haqqoniy tasvir etilgan va shu tarixiy sharoitda yashagan ulug' zotlarning murakkab ruhiy kechinmalarga, dramatik voqealarga boy hayot yo'li chizib beriladi. Ushbu romanda yaratilgan obrazlar harakatda, kurashda chiniqib, takomillashib, rivojlanib boruvchi dinamikali obrazlardir. Bu obrazlarda usha tarixiy davr arboblari faoliyatiga mos bo'lgan ko'p qirralik, rang-baranglik aks etgan. Bu xususiyat xalq ishi uchun kurashgan va bu kurashda hamma vositalardan - badiiy adabiyotdan ham, ilm-madaniyat sohasidan ham, yirik davlat arbobi sifatidagi siyosiy faoliyatdan ham barobar foydalangan-Abulg'ozil Bahodirxonga taalluqlidir. Erkin Samandarov romanda Abulg'ozil obrazini odamlarning baxt-saodati haqida qayg'uruvchi inson, ilm-ma'rifat yo'lga butun umrini bagishlagan odam va davlat ishlarini mamlakat obodonligi va xalq farovonligi yo'lida tashkil qilishga harakat qilgan adolatparvar hukmdor sifatida tasvirlaydi.

²⁴ Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. Tarix va adabiy jarayon. -T., 2006

Xorazmshoh Arabmuhammadxonning to‘rtinchi o‘g‘li Abulg‘ozi Bahodirxon²⁵ va u ushbu asarning bosh qahramoni hisoblanadi. "Shajarai turk" asarida ma’lumot berilishicha, Arabmuhammadxonning yetti o‘g‘li bo‘lgan.

Arabmuhammadxonning yetti o‘g‘li bor erdi: "Asfandiyorxon, ikkinchi Habash sulton, uchinchi Elbars sulton, to‘rtinchi Abulg‘ozixon, beshinchi Sharif Muhammad sulton, oltinchi Xorazmshoh sulton, yettilanchi Avg‘on sulton"²⁶.

Biz tadqiq qilayotgan "Tangri qudug‘i" romanida Arabmuhammadxondan tashqari asosan uning to‘rtta farzandi Isfandiyor, Elbars, Habash va Abulg‘ozixon asar sujetini harakatga keltiruvchi tarixiy shaxslar hisoblanadi. Asosiy e’tiborni shular orasida birinchi bo‘lib Abulg‘ozi Bahodirxon obraziga qaratadigan bo‘lsak "Shajarai turk" asarida keltirilishicha "Tarix hijriy ming taki ellik ikkida, yilon yilinda yurtimiz va elimizga keldim. Olti oydin so‘ng yilqi yilining avalindi Asfandiyorxon vafot topdi. Asfandiyor ulgandin bir yil sung Amu suvining tengizga kuygon yerinda, ul yerni Orol derlar erdi, tarix hijriy ming taqi ellik to‘rtida kuy yilining avvalinda faqirni xon ko‘tardilar"²⁷. Ushbu parchada Abulg‘ozi Bahodirxonni xon qilib ko‘tarilgan vaqti keltirilgan. "Tangri qudug‘i" romanida esa voqealar ancha oldin, Arabmuhammadxonning tiriklik payti, ham o‘g‘illari o‘rtasida xonlik uchun o‘zaro to‘qnashuvlar paydo bo‘lmagan paytdan boshlangan. Abulg‘ozi Bahodirxonning to xon darajasiga ko‘tarilgunigacha bo‘lgan voqealar, uning boshidan kechirgan sarguzashtlari ko‘pgina hollarda tarixiy faktlar asosida badiiy to‘qimaga o‘ralgan holda adib tomonidan mohirlik bilan tasvirlangan. O‘z akalari bo‘lmish Asfandiyor, Habash va Elbarslarning jirkanch xatti-harakatlari tufayli xonliklarda ro‘y bergan parokandalik jaholat va yovuzlikni yengish uchun xalqning baxt-saodatini tiklash uchun u umrining oxirigacha kurashgan. U taxtni qo‘lga kiritguncha deyarli butun hayoti tahlika ostida kechadi. Arabmuhammadxonning o‘z o‘g‘illari Elbars va Habashlar qo‘lida qatl qilinishi, o‘zining oldin Buxoro amiri Imomqulixon qo‘lida ushlab turilishi voqealari, keyinchalik Asfandiyorxonning Abulg‘oziga nisbatan qilgan

²⁵ Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarai turk.-T.: "Cho‘lpon", 1992. -B.160.

²⁶ O‘sha asar. -B.160.

²⁷ O‘sha asar. -B.179.

xiyonati, bergan azob-uqubatlarini iste'dodli adib Erkin Samandarov ajoyib so'z bo'yoqlari orqali tasvirlab bera olgan va Abulg'oz Bahodirxonning portret-xarakteristikasini mohirlik bilan yoritib bergan. Adabiyot nazariyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak badiiy asardagi psixologik tahlil vositalaridan ichki monolog, psixologik kolliziya, psixologik parallelizmlar, psixologik portretlar, tuyg'u va hissiyotlarning obrazli formalari-so'zsiz munosabatlar (qarashlar, kulgi, mimika), so'zlash yo'sini, nutqning alohida ifodalari kabilar qahramonlarning ijtimoiy, individual, ahloqiy xususiyatlarini, ya'ni ularning botiniy va zohiriy olamini ifodalashga xizmat qiladi²⁸.

O'zbek adabiyotshunosligida portret-xarakteristika va uning ko'rinishlari hamda funksiyalari birmuncha tekshirilgan. Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi yirik adiblarning portret yaratish mahorati haqida bir qancha ishlar qilingan. Portret-xarakteristika qahramon ichki va tashqi qiyofasining sintezidir. Chunki portretda qahramon xarakterining ayrim qirralari o'z aksini topadi. Badiiy adabiyotdagi portretlarni adabiyotshunos I.V.Straxov²⁹ quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

- 1) Sintetik portretlar;
- 2) Qat'iy portret chizgilar;
- 3) Situativ portret chizgilar.

Sintetik portretlarni u o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'ladi;

- 1) qisqa portret tasvirlar;
- 2) bir necha komponentli, detallar bilan izchil ishlangan portretlar;
- 3) keng ijtimoiy-psixologik

profildagi ko'p planli portretlar. Tasvirining xarakteriga qarab portretlarning bajargan g'oyaviy-badiiy funksiyalari ham turli-tuman bo'lishi mumkin. I.V.Straxov o'z tasnifida ana shu narsaga rioya qilgan.

"Tangri qudug'i" romanidagi asosiy qahramonlarning xarakterlari detallar bilan izchil ishlangan, bir necha komponentli yoki keng ijtimoiy psixologik

²⁸ Abduvahobova M. Portret-xarakteristika psixologik tahlil vositasi sifatida.//O'zbek tili va adabiyoti .1983.No-1.

²⁹ Страхов И.В. Методика психологического анализа характеров в художественно произведении. -М., 1997.

profilidagi ko‘p planli portretlarda namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan Abulg‘ozi Bahodirxon obrazining yaxlit sintetik portreti xarakterlidir.

"Abulg‘ozining qoshlari chimirildi. Shunday paytlarda u tag‘inda salobatliroq ko‘rinadi. Uzunchoq sersoqol, tiniq yuzi jiddiy tortib, qat‘iyatli sardor qiyofasini kasb qilar, asli odamga yumshoq boquvchi qora ko‘zlarida ancha yoshni urib qo‘ygan, olovlarda toblangan sultonlar nigohida bo‘ladigan dadil va jur‘atli ifoda aks etardi. O‘rtadan baland bo‘yi, keng yelkasi sipohmand bo‘lsa, chehrasidagi nur, harakatlaridagi sipolik va osoyishtalik ulug‘vorlik nishonasi o‘laroq kishi diqqatini o‘ziga tortmay qolmas³⁰. Ushbu keltirilgan portret tasvir orqali kitobxon ko‘z o‘ngida Abulg‘ozi Bahodirxon obrazi yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning yuz qiyofasi, o‘zigagina xos bo‘lgan tabiati, harakatlari, bo‘y-basti va jamiki salobati adib mahorati orqali ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bundan tashqari mazkur obraz asardagi boshqa bir qahramon, ya‘ni Imomqulixon nigohi orqali yanada mukammalroq tasvirlangan. "Abulg‘ozi sulton bilan ilk uchrashuvdayoq amir bu navqiron shahzodaning nafis iqtidor sohibi ekaniga ishonch hosil qildi. O‘tmishni nozik angelaydi. (Yetti pushtini nomma-nom aytib beradi). Turkiy zaboni ravon va suxon magzini chaqishda allomalarga dars bergudek. (Bitta Xorazm so‘zining bir nechta ma‘nosini sharh qiladi). Buxoroi sharifga ta‘zimkor. (Amirga yetkazib turdilarki, qadamjolarini tavof etmagan kuni yo‘q). Bunday yosh, ma‘rifatli shahzoda o‘lmasa, ertaga suyagi qotgan, tuz yegan joyiga salom berishni unutmaz"³¹.

Yuqoridagi parchadan Abulg‘ozi Bahodirxonning ilimli, ma‘rifatli va ma‘naviyatli inson bo‘lganligi ko‘rinib turibdi.

Ma‘lumki, badiiy asarda tarixiy shaxslar obrazini gavdalantirish o‘ta mas‘uliyatli vazifa. Buni anglab yetgan adib asarni yozishga katta tayyorgarlik bilan kirishdi. Mavzuga oid manbalar asosida zamonaga xos lavha va epizodlarni topib, asarga olib kirdi va Abulg‘ozi Bahodirxon obrazini yaratdi.

³⁰ Asar. -B.70.

³¹ Samandarov E. Tangri qudug‘i. –T.: “Xazina”, 1996. -B.120.

Abulg'ozī Bahodirxonning "Shajarai turk" asari, Munis va Ogahiyning "Firdavsul ikbol"i, Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" asari, Bunyodovning "Anushteginlar tarixi" kitobi va bir qancha hujjatlar bilan mufassal tanishgan holda Erkin Samandarov ushbu romanda tarixiy shaxslar portretini mohirona chizib bera olgan.

Abulg'ozī Bahodirxon hayoti va faoliyatini o'rganish orqali adib tarix qa'rida yotgan mutafakkirni o'z davrida xalqning va davlatning tayanchi, murod-maqsadi deb bilgan odam, davlat arbobini; xalq xotirasida, rivoyatlarida odillik va allomalik timsoli bo'lib xotira qoldirgan bo'yoq insonni o'z davri va bugungi kun, kelajak avlod uchun ustundek qad ko'targan azamat siymoni ko'rdi va ana shu timsolni; tarixiy haqiqatni aks ettirish uchun bel bog'ladi.

"Yangi tojdorga qarab olomon o'ylaydi: bunisining siyog'i boshqa, chehrasida nur balqib turibdi, chehrasi yorug' odamdan yomonlik chiqmaydi"³².

--Abulg'ozī, Abulg'ozī... -o'z-o'ziga deganday ichkin o'ksindi Arabmuhammadxon. - Yosh ersada shuuri butun, ko'ngil mulki nur kabi shaffof.

Arabmuhammadxon gijinib ancha jim yotdi. So'ng umidvorlik bilan dedi:

- Inshoolloh qora kunlar o'tib ketur. Haq joyida qaror topmay qolmas. Saltanat tizgini bir kuni kelib Abulg'ozī sulton ilgida bo'lmog'iga zarra gumonim yo'qturur"³³.

Erkin Samandarov asarda teran falsafiylik va yuksak badiiylikni tarixiy haqiqat bilan uyg'un holda bera oldi. Uning asardan ko'zlagan maqsadi Xorazm tarixini va shu davrga aloqador bo'lgan tarixiy shaxslarning badiiy obrazini yaratish edi.

Romanda Abulg'ozī obrazidan tashqari yana bir qancha tarixiy shaxslarning badiiy qiyofasi detallar bilan izchil bayon etilgan va keng ijtimoiy psixologik profildagi ko'p qirrali portretlarda namoyon qilingan. Romanda katta epik janrning imkoniyatlaridan ancha ustalik bilan foydalangan holda Arabmuhammadxon, uning o'g'illari: Isfandiyor, Abulg'ozī, Habash, Elbars hamda ularning atrofidagi tarixiy shaxslarni turli rakurslarda tasvirleydi. Ushbu romanda adibning mahorati

³² O'sha manba. -B.200.

³³ Samandarov E. Tangri qudug'i. -T.: "Xazina", 1996. -B.146.

sujet ko‘rish va uning qismlarini o‘rinlashtirishda to‘la namoyon bo‘lgan deyish mumkin. Asardagi o‘nlab qahramonlarning birortasi yozuvchi nazaridan, ya’ni sujet chizig‘idan chetda qolmagan. Ularning hayot yo‘li tasviri asarning sujeti rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ko‘plagan tarixiy shaxslar va to‘qima obrazlardan birortasining taqdiri ham muallif nazaridan qochmaganidan tashqari, ularning har biri, albatta, sujet rivojida muayyan darajada ishtirok qiladi.

Romandagi asosiy timsollardan biri Arabmuhammadga xos jihatlar asarda ta’sirli tasvirlangan. U xon bo‘lishiga qaramay, hayoti davomida ko‘pincha manfaat va amaliyot kishisi emas, balki ko‘ngil odami sifatida yo‘l tutishi ishonarli ko‘rsatiladi. Ko‘nglining nozikligi, odamga, ayniqsa, o‘z yaqinlariga cheksiz ishonch, ko‘pincha, uni shafqatsiz harakatlardan, hukmdorga xos qat’iyatdan tiyib turadi. Xon o‘zini, avvalo, ota deb bilgani uchun ham otabezor o‘g‘illariga qarshi shafqatsiz chora ko‘rmaydi. Uning suyukli o‘g‘li Abulg‘oziga qarata: " Abulg‘ozi, fikr qil, ular ham xuddi seningdek o‘g‘limdur, pushti kamarimdan bo‘lgan farzandimdir. Shundoq qilib senga ularni o‘ldir deyurmen", - tarzidagi iqrorida Arabmuhammadxon shaxsiga doir yetakchi sifatlar namoyon bo‘ladi. U noshud va tadbirsiz ham, ko‘ngli bo‘sh ham emas. Lekin xon taqdirining har qanday sinoviga tayyor bo‘lsada, uning o‘g‘illarining yovuzliklariga qarshi turishga hozir emas. U o‘g‘illari isyonini bosish yo‘llaridan ham ko‘ra, Habash bilan Elbarsni bunday qabohatga undagan omillarni topmoqqa urinadi. U bolalarining yovuzliklari uchun, avvalo, o‘zini aybdor deb biladi. Bu hol xonning: " Senlar vujudimdan sizib chiqqan bir tomchi nutfa-yiringdan yaralgansizlar. Mening ko‘zlarimni ko‘r qilgan senlarning millaring emas, o‘z yiringlarimdur. Men o‘z taxtida o‘z yiringlariga belanib jon berayotgan hukmdormen", - tarzidagi so‘zlarida yaqqol ko‘rinadi. U birovlardan ayb qidirmaydi, o‘zini taftish etadi, o‘zgalarning jinoyatida ham o‘z xatosini ko‘radi.

Yozuvchining tasvir mahorati shundaki, u har bir timsol ruhiyatining turli hayotiy vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘lganligini to‘g‘ri aks ettira bilgan. Imkon borida o‘ziga qidir bosh ko‘targan Habash va Elbarsga chora ko‘rishni istamagan Arabmuhammadxon ular tomonidan qatl etilayotgan paytda: Ixtiyorimda bitta

imkonim qolibdur, ya'nikim senlarni oq qilmoq huquqli. Ilgimdagi eng so'ngi bu oq shunday qudratga egadurkim, oning zahmidin jon bergan farzand abadul-abad do'zax o'tlarida yonur, yillar o'tar, zamonlar o'tar avlodlar ketidan avlodlar kelur, ammo oqim bu oq tovushlari quloqlardin quloqlarga yetib, odamlarni hushyorlikka otalarni uyg'oqlikka, farzandlarni insofga, mehru shafqatga da'vat etur. Senlarning nomlaringni eshitganlarida odamlar jirkanurlar, senlarning ruhlaringga otiladigan nafrat toshlarini adog'i bo'lmas!"-tarzida qat'iyat ko'rsatadi. Bu so'zlarda zo'rakilik personaj tabiatiga nomuvofiqlik yo'q. Chunki xon ojizlikka, yon berishga, dushmandan cho'chishga odatlanmagan o'ktam shaxs. Shuning uchun ham so'nggi damda qo'llarini ota qoni bilan bo'yagan farzandlarini qarg'amasdan turolmaydi. Lekin salgina nari borib, o'limi oldidan yaratganga qarata: parvardigor, noshurur o'g'illarim gunohidin o'tgaysan, razolat botqog'idin chiqarib, diyonat yo'liga boshlagaysen, ota kechira olmagan ul ikki noshud o'g'ilni o'zing kechirgaysan..."³⁴, - tarzida qilgan iltijosi ota ruhiyatining o'zgacha yana bir qirradi namoyon bo'ladi. Hayotining so'nggi damida o'z o'limiga sabab bo'layotgan bolalari gunohidan o'tishni Oллоhdan so'ray olish tasviri xon shaxsiyati balandligini aks ettirishi jihatidan tengsiz ahamiyatga ega. Bu tasvirlar ayni bir odam tabiatiga xos jihatlarning turli vaziyatlarda turli yo'sinda namoyon bo'lishini ko'rsatganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib, Arabmuhammadxon obrazining portretini keltirishimiz mumkin:

"Bo'y-basti viqorli, keng yelkalarida har bittasida bir farishta o'tirganday, jo'mard yigitlarnikiday o'ktam. Yuzi o'zunchoq, qirra burun, soqolining qorasidan oqi ko'p, o'ziga yarashgan. Mo'ylovi ixcham ko'zaklangan. Ko'zlari katta va sokin. O'zini nima kutayotganini bilsada, yuzida sarosimadan asar yo'q, yoki muruvvatdan umidvormikan?

Xonning dur-u gavharli kamari, zar choponi yechildi, boshidan toji olindi. O'zi do'ng ustiga yotqizilib, qo'li orqasiga bog'landi, oyog'iga arqon solindi. Arabmuhammadxonga shunda ham vahm begona, odamlar yuziga boqmas, o'tlar

³⁴ Samandarov E.Tangri qudug'i. -T.: "Xazina", 1996. -B.395

va daraxtlarga tinmay ko‘z tashlar, go‘yo yam-yashil olam bilan unsiz vidolashar edi”³⁵.

Yuqoridagi psixologik ruhdagi portret uch komponentdan iborat. Birinchisida Arabmuhammadxonning sof tashqi ko‘rinishi berilgan. Ya’ni, uning salobatli va viqorli gavdasi kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Ikkinchisida Arabmuhammadxon xarakteriga xos bo‘lgan mag‘rurlik dushmanga bo‘yin egmaslik holati tasvirlangan. (O‘zini nima kutayotganini bilsa-da, yuzida sarosimadan asar yo‘q). Uchinchisida esa (duru gavharli, zar choponi yechildi, boshidan toji olindi) u oddiy xalq, vakili emas, balki xon ekanligiga ishora ham bor.

Arabmuhammadxonning bu sinkretik portreti komponentlari roman davomida qat’iy va situativ portret chizgilarda to‘laligicha tahlil qilinadi.

"Xonning kayfiyati soz. Ko‘zida sukunat, chehrasida mamnuniyat jussasida kuch va o‘ktamlilik tarovati. Odatda safarlarda kiyadigan toji sallasi ham, ko‘k fiyron to‘ni (yengsiz, yelkaga tashlab qo‘yiladigan to‘n) ham, uzun kunjli oq etigi ham o‘ziga yarashgan. Harakatlari hamishagiday vazmin, dadil, dimog‘dorlikdan xoli, dil xush”³⁶.

Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Shuning uchun aytish mumkinki, portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘lik holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba’zan shaxsning tashqi qiyofasi yoki xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali berilishi mumkin. Portret obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir³⁷. Erkin Samandarov ijodida, tarixiy shaxslar tasvirida shuni ko‘rishimiz mumkinki, adib asar qahramonlari kiyimlariga alohida e’tibor qaratgan. Tasvirdagi qahramonlar tashqi ko‘rinishining ifodasi bo‘lgan kiyim-kechaklarning qandayligidan mazkur tarixiy shaxslarning didini ham bilib olishimiz mumkin.

³⁵ O‘sha joyda -B.27.

³⁶ Samandarov E. Tangri qudug‘i. –T.: “Xazina”, 1996. -B.95.

³⁷ Hatamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. -T., 1997. -B.252.

Romandagi ijtimoiy-psixologik portretlarning ko'pchiligi boshqa personajlar nazari orqali tasvirlangan. Quyidagi parchada Isfandiyorning rafiqasi Gavhar xonim tasviri berilgan "Gavhar xonim uni ostonada ehtirom bilan kutib oldi. Zimdan kuzatdi. O'zini oldirgan. Oq-qizil yuzlari hamisha tiniq edi, so'ligan. Qaddi tik va viqorli edi, cho'kkan. Ammo ko'zlari hamishadagidek odamga dadil va mayin boqadi, o'ychan, shu bilan barobar unda qandaydir shijoat balqib turadi"³⁸. Asarda berilganidek saltanatning zalvorli janubiy darvozasi hisoblanmish Hazorasp qal'asining Elbars va Habashlar tomonidan qamal qilinishi qal'a ichidagi xalqning ahvolini tang qilib yuborgan edi. Gavhar xonim ham xuddi ana shu narsadan aziyat chekar edi. Yuqoridagi parchada ham uning shu ahvoli ruhiyati eri Isfandiyorxon nazari orqali tasvirlanayotir. Tarixdan ma'lumki, Gavhar xonim o'z davrida din va ulusning orasida mavqei baland bo'lgan shayx Nosiriddinning qizi hisoblanadi³⁹. Tarbiyali va go'zal xulqli bu ayol asarning yana bir joyida Isfandiyor tilidan quyidagicha tasvirlangan. "Isfandiyorning unga rahmi keldi. Charos ko'zlarida tabassum o'rniga mung, uzun kipriklarida surmali joziba o'rnida g'am soyasi. Ammo ma'sumalik bundan ortiq bo'lmas. Xushro'y bo'lgani barobar xushqiliq, fahm farosatli. Suhbati nozik, shirin. Dilingni anglaydi"⁴⁰.

Muallif Gavhar xonim obrazining yuqoridagi psixologik portretini Isfandiyorxon nigohi bilan tasvirlagan. Shuning uchun Gavhar xonimning ruhiy kechinmalari, uning tashqi qiyofasida muhrlangan holda aks ettirilgan. Bulardan tashqari, asarda Arabmuhammadxonning noqobil farzandlari hisoblanmish Elbars va Habash obrazlariga nisbatan berilgan tasnif e'tiborni hal qiladi.

"Tashqi ko'rinishdan ular bir-biriga deyarli o'xshash. Bo'ylari o'rtadan past, bo'yinlari yo'g'on va kalta, yuzlari oqchil, dumaloq burunlari go'shtdor, og'izlari katta. Habashning farqi qulog'ining supradek yalpoqligida va ko'zida edi. Naymanliklarga xos bo'lmagan qisiq ko'zlarida aytarlik kiprik yo'q deyarli mijja qoqmaydi, odamga lo'q etib qarab turaveradi. Shoshib tez-tez gapiradi, bitta fikrni tugatmasdan ikkinchisini boshlaydi, so'zlari ichiga sig'may ust-ustiga qalashib

³⁸ Samandarov E. Tangri qudug'i. -T.: "Xazina", 1996. -B.95.

³⁹ Abulg'azi Bahodirxon. Shajarai turk. -T.: "Cho'lpon", 1992.

⁴⁰ Samandarov E. Tangri qudug'i. -T.: "Xazina", 1996. -B.51.

keladi. Qo‘llarini hadeb shiqirlatadi’’⁴¹. Habash bilan Elbars Arabmuhammadxonning nayman urug‘iga mansub bo‘lgan rafiqasi Gulsum bonuning farzandlari hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, adib ushbu tasvirda urg‘uni aynan "naymanliklar"ga bergan. Bundan tashqari, uning ko‘z qiyofasida odamni o‘ziga jalb qila oladigan hech narsa yo‘qligi, aksincha gapirishida va harakatlaridagi sabrsizlik shoshma-shosharlik belgilari xon farzandlariga xos bo‘lmagan xususiyatdir. Mazkur portret tasvirini Abulg‘ozi Bahodirxon obraziga nisbatan keltirilgan sifatlar bilan solishtiradigan bo‘lsak, uning yuzidan yog‘ilib turgan nur, ko‘zlaridagi ma‘nodorlik xonlarga xos bo‘lgan salobati va boshqalar bu ikkala qahramonning bir-biriga umuman zid ekanligini ko‘rsatadi. Quyida Elbars obrazi tasviriga e‘tiborimizni qaratsak. "Elbars xuddi akasidek to‘la, lekin undan farqli o‘laroq xomsemiz emas. Mitti gavdasidan navqiron kuch yog‘iladi. Yuzi sepkilli, peshonasi tor. O‘ng ko‘zining ostida danakdek qo‘ra xoli bor. Uning bir dona uzun muyi buralib tik turadi. Qo‘yko‘z. Cho‘qqisoqol. Kamgap. Hamisha norozi. Hamisha jahli burnining ustida’’⁴². Yuqoridagi psixologik ruhdagi portret tasviri bir necha komponentdan iborat. Unda Elbarsning sof tashqi ko‘rinishi batafsil yoritilgan, bundan tashqari uning ruhiy holati (Hamisha norozi.) urish davrdagi nochor vaziyatda yuzaga kelgan chorasizlik belgilariga (jahli burnining ustida.) ishora qilingan.

"Tangri qudug‘i" romanida tarixiy shaxslar tasvirida qisqa portret tasvirlari orqali personajlarning jismoniy va ma‘naviy belgilari orqali o‘rni bilan ularning yaxlit qiyofasini ko‘rsatishga erishilgan.

Erkin Samandarov bunday portret tasvirlardan ikkinchi darajali va epizodik xarakterdagi personajlarni o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantirish uchun foydalangan.

Qisqa portret tasvirlarining ayrimlari detallashtirilgani bilan hech qanday ruhiy funksiya bajarmaydilar, ular qahramonlarni sof tashqi ko‘rinishining ba‘zi belgilarini ifodalaydilar xolos. Masalan, "Yo‘lboshlovchi Shaynak mirzo mang‘it beklaridan. Yigirma besh yoshlardagi barvasta yigit. Tavakkalchi, dangal". Bunda

⁴¹ Samandarov E. Tangri qudug‘i. –T.: "Xazina", 1996. -B.60.

⁴² O‘sha joyda.

romandagi epizodik obrazlardan hisoblangan Shaynak mirzo tasviri berilgan. "Shajarai turk" asarida dam ma'lumot berilishicha, Shaynak mirzo mang'it beklaridan bo'lgan. Asarda aynan uning "dangalchi" ekanligiga urg'u berilayotganining boisi ham shundandir, chunki u qoraqalpoq millatiga mansub kishi hisoblanadi. Romandan personajlar qisqa portret tasvirlarining yana boshqa bir ko'rinishi mavjudki, unda personajlarning bir qancha jismoniy belgilari va ularning har biriga xos xususiyatlari alohida ta'kidlanadi.

"Qarchig'ay so'zini Shoh Abbas ko'zlarini yumib eshitdi. Chekka tomirlari bo'rtdi. Ikki qoshi o'rtasida oshiqday tugun paydo bo'ldi. Chap yuzining eti pir-pir uchdi. Ko'zini ochganida qarchig'ay unda qon ko'rdi".

Yuqorida keltirilgan parchada qizilboshning podshosi Shoh Abbas moziy tasviri berilgan. Tarixiy hujjatlarda ham, "Tangri qudug'i" romanida ham bir voqea bayon qilinadiki, unga ko'ra Shoh Abbas Isfandiyorxonga o'z yurtining taxtini egallashda ko'mak bergan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Shoh Abbas o'ta badjahl, zolim, qattiqqo'l, mag'rur va beshafqat shoh bo'lganligi ta'kidlanadi. Yuqoridagi tasvirdan ham uning ana shunday tabiati yaqqol namoyon bo'lgan.

Demak, adib mahorati bilan yaratilgan situativ portret chizgilar sintetik portretlarni to'ldirib, qahramonlarning emotsional - ekspressiv qiyofasini xarakterlaydi. Qahramonlarning turli vaziyatlardagi holati, ifodasi uning tashqi ko'rinishiga-yuz, ko'z, kulgi ifodalari, nutq ohangiga ko'chadi. Ko'p hollarda badiiy asardagi so'zsiz munosabatlar (qarash, kulish, mimika.) situativ portret chizgilar bilan omuxtalashib ketadi. Erkin Samandarovning tarixiy shaxslar portretini yaratish mahoratining nozik tomonlaridan biri shuki, adib qahramon qiyofasidagi o'zgarishlar zamirida yashiringan ma'nolarni ta'riflaydi.

Romandagi salbiy qahramonlarning murakkab izchil kechinmalari portret tasvirlarda qisman aks ettirilgan. Ba'zan kutilmaganda uyg'ongan insoniy tuyg'ular ularni vijdonan qiynaydi.

Habashning quturish kasaliga giriftor bo'lishi, qaroqchi Chovdurning Abulg'ozidan avf so'rab, oyoqiga yiqilishi, Xojinazarning kechirim so'rab Abulg'ozini qoshiga kelishi shu azoblarning kulminatsion nuqtasidir.

Romanda qalandarlar, din peshvolari, amir, zodagonlarning tasvirlari ham berilgan bo‘lib, ular kuchli psixologik yuk tashimaydi, balki o‘sha davrda har xil ijtimoiy tabaqalarga mansub kishilarning jamiyatda tutgan mavqei, yashash tarzi, kiyinish odatlarini oydinlashtirishga yordamlashadi.

Xullas, "Tangri qudug‘i" romanidagi tarixiy shaxslar tasviri haqiqiy individual psixologiyaning majmuasidir. Bu esa yozuvchining psixologik tasvir va tahlil mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.

II BOB “Tangri qudug‘i” romanida tarixiy voqealarning badiiy tasviri va uslub qirralari

2.1. Romanda diniy-ilohiy tushunchalarning o‘rni

Hozirgi o‘zbek adabiyoti an’anaviy ildizlari bilan chambarchas aloqada ekanligi bugungi romanlarimiz qatlariga nazar tashlash orqali ham oydinlashadi. Erkin Samandarning butun ijodiy yo‘lida qiziq bir holat bor: bashoratgo‘ylarni, ruhoniylarni, tasavvufga yaqin kishilarni qandaydir mehr bilan tasvirleydi. Bu, xususan, "Tangri qudug‘i" romanidagi Som payg‘ambar, Oq shayx bobo, Shamsiddin xoja, Muhiddinbek obrazlarida yaqqol ko‘rinadi. Bu, albatta, shunchaki zamonasozlik emas, binobarin, diniy - falsafiy qarashlar, ruhiy olam sirlari hayotimizdan, adabiyotimizdan 70 yil davomida quvg‘in, qatag‘on qilingan edi. Aslida Erkin Samandarovda diniy asarlarni badiiy tadqiq etishga intilish bor. Diniy-falsafiy qarashlar, mushohadalar orqali hayotiy voqealarni badiiy gavdalantirish ko‘p xayrlik ishdir. Ushbu romanning ko‘pgina o‘rinlarida olamning yaratilishidagi ilohiy muvozanat, yaratuvchisini idrok etuvchi insonning ilohiy shamoyilda bunyod etilishi, qadimiy Xivaning bunyod bo‘lishi haqidagi Som payg‘ambar bilan bog‘liq rivoyatlar, Oq shayx bobo bilan Arabmuhammadxonning g‘oyibona suhbat, ilohiy qudratga ega bo‘lgan Shamsiddin xoja va uning ikki ukasi Najmiddin va Muhiddinlar, Bibi nur haqida afsonalar, rivoyatlar orqali berilgan. Bu ilohiy mazmundagi kiritmalar roman voqealaridan mustaqil tarzda yondosh (parallel) holda berilgan. Lekin asarning g‘oyaviy-badiiy maqsadini ochishda ular nihoyatda kuchli ravishda uyg‘unlashtirilgan. Erkin Samandarov inson zotining kuchli va ojiz jihatlarini xilma-xil nuqtai nazarda aks ettiradi. Ayniqsa, bashariyatning ilk tarixi bilan qiyosiy tahlil etishda ilohiy mazmundagi kiritmalardan foydalanish ijobiy natijalar bergan. Odam zotining tavba, anglash, his etish yo‘lini o‘tab, itoatga kelishi, haq yo‘lidaga bandasining hidoyat qilinishi bilan bog‘liq ilohiy-falsafiy fikrlar birmuncha hayajonli o‘y- mulohazalar orqali Shamsiddin xoja obrazi misolida ilgari suriladi. "Tangri qudug‘i" romanida Erkin Samandarov Qur`oni Karim sura va oyatlaridan foydalanar ekan, goh uning shakl va mazmunini to‘la saqlaydi,

gohida esa bunday ilohiy mazmundagi kiritma orqali o‘z falsafiy fikr-o‘ylarini izohlaydi, to‘ldiradi. Ijodiy fantaziyani boyitish, taxayyul ufqlarini kengaytirishga erishadi. Adib "Tangri qudug‘i" romanini yozar ekan, undagi asosiy obrazlar Qurbon-xoji-Nazarxoji-Xojinazar, Eshimbek-Alparslon, Arabmuhammadxon-Muhiddin-Fazliddin-Shamsiddin xoja, Xo‘jamberdi-Enamoy, Zikriyo begim-Xolligul-Habash, Elbars-Zikriyobegim-Alparslon- Eshimbey, Shoh, Abbas moziy-Isfandiyor, Isfandiyor-jazabiylar, saltanat-Isfandiyor, bir yoqda urush suronlari voqealari. Bular shu qadar keng ko‘lamda tasvirlanganki, ularni yagona ipga tizib-birlashtirib turuvchi mustahkam qoziq kerak edi. Bu Ichan qal‘adagi tangri qudug‘idir. Rivoyatlarga ko‘ra, Xivadagina emas, butun yurtda urushlar, qirg‘inlar sodir bo‘lsa, padarkushlik birodarkushlik avj olsa, tangri qudug‘ining suvi qon va yiringga aylanar, agar yurtda tinchlik, mehr-oqibat barqaror bo‘lsa, quduq suvi ziloldek tiniq bo‘larkan. Asardagi tangri qudug‘i, Bibi Nur ena, hazrati Sulton Uvays, xoja Shamsiddin timsoliga bog‘liq hayajonli tasvirlar teran ramziy ma’noga egadir. Tangri qudug‘ining turlicha holati qaror topgan adolat yoki toptalgan haqiqatni aks ettirsa, Bibi nur ena timsoli kelisholmaslik va o‘zaro janjallar tufayli oyoq-qo‘liga kishan solingan Vatan hamda millatni ifodalaydi. Payg‘ambarimiz aziyat chekkani tufayli o‘zini ayamay jazolagan va butun hayotini Yaratgandan rasulning ummatlari gunohini so‘rab olishga bag‘ishlangan Sulton Uvays hazratlari timsoli rahmdillik, kechirimlilik va qilingan gunoh uchun to‘lov shartligi ifodasi tarzida ilgari suriladi. Mazkur roman o‘zbek adabiyotining an’anaviy ildizlari bilan chambarchas aloqada ekanligi e’tiborimizni tortdi. Ajdodlarimiz samoviy tasavvurlari to‘g‘risidagi mifologik qarashlari muayyan darajada o‘rganilgan⁴³. Ularda mifopoetik tafakkur va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlarga alohida e’tibor qaratilgan, ajdodlarimizning e’tiqodiy tasavvurlari mohiyatini izohlashda muhim xarakter kasb etishini ta’kidlagan. Folklorshunos olim M. Jo‘raev kosmogonik miflar asosida yuzaga kelgan samoviy afsonalar sujetining tarixiy asoslarini va motivlar tizimini sinchklab o‘rganar ekan, ularning

⁴³ Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. -T.: "Fan", 1995. O‘zbek mifologiyasi va adabiyot folklori. -T.: "Fan", 2001.

matniga asos boʻlgan birlamchi mifologik tasavvurlarning rudiment (qoldik) holda saqlanib qolgan talay unsurlarini aniqlash, tasnif qilishga muvaffaq boʻlgan⁴⁴. Olimning taʼkidlashicha, afsonalar qadimiy eʼtiqodlar va mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan hikoyalar boʻlib, etimologik miqlarning talqinlarini badiiy tafakkur qonuniyatlari vositasida bayon qiladi⁴⁵. Badiiy estetik mohiyat kasb etgan verbal shakldagi samoviy afsonalar oʻziga xos shakllanish hamda takomillashish bosqichini oʻtagan. Samoviy asotirlar va mifologik qarashlar asosida yuzaga kelgan eʼtiqodiy ishonchlar bugungi kunda nafaqat xalq anʼanaviy marosim, rasm-rusumlari, balki uning tafakkur tarzida ham saqlanib qolgan. Xususan, "Tangri qudugʻi" romani poetikasi va uslubida kuzatiladi. "Xalqimiz yer osti olamiga goʻr, quduq, yoriq-teshik yoki gʻor orqali oʻtish mumkin deb oʻylagan", - deb yozadi M. Joʻraev⁴⁶. Xalq inonch-eʼtiqodlariga koʻra Osmon-maloiklarining makoni, yer osti oʻliklar mulki. Bu qadimiy mifologik tasavvurlar asosidagi motivdan mazkur romanda ham foydalanganini koʻramiz. E.Samandarning "Tangri qudugʻi" romanidan keltirilgan ayrim parchalarni kuzatish fikrimiz tasdigʻiga xizmat qiladi: "Som alayhissalom iltijosi bilan Xiva qalʼasidan avval gʻoyibdan mujda qilingan Tangri qudugʻi hamisha chuchuk suvga serob edi. Xivaning birinchi gʻishti uning suvi bilan qoʻyilgan, Oq shayx bobo olovxonasining loyi uning suviga qorilgan. Qalʼa paydo boʻlganidan beri xivaliklar hayitlarni tangʻri quduq suvini totishdan boshlaydilar, goʻdaklarga ona sutidan keyin uning suvi ichiriladi, oʻlikni uning bilan yuvishini farz deb biladilar, uylanayotgan yigit joʻralari bilan toʻydan oldin quduqqa boradi, uni tavof etib zilol ganchilarini hovuchiga olib ichadi. Shunday muqaddas quduqda bugun suv oʻrnida qon... Odamlar bunday dahshatni koʻrgan ham, eshitgan ham emaslar". Kuzatilgan parchalar bayon uslubi va qisman shakli jihatidan xalq ogʻzaki ijodidagi afsona va ertaklarga ancha yaqin turadi. Biz ahamiyat qaratayotgan jihat bu asardagi asosiy eʼtibor aynan "quduq", yaʼni tangri qudugʻiga qaratilganligidadir. Aynan shu quduqda xuddi ertak va rivoyatlarda boʻlgani kabi adolatsizlik va jaholat tufayli bu dunyodan bevaqt oʻtib ketgan

⁴⁴ Joʻraev M. Yetti homiyning mifologik asoslariga doir //Adabiy meros. 1989. No2.

⁴⁵ Joʻraev M. Oʻzbek xalq samoviy afsonalari. -T.: "Fan", 1995. -B. 9.

⁴⁶ Oʻsha joyda . -B.23.

odamlarning jismi namoyon bo‘ladi. Asar voqealariga ko‘ra, Arabmuhammadxon o‘ldiriladi, o‘z farzandlari Habash va Elbarslar uni o‘ldiradi. Isfandiyor bilan Abulg‘ozi esa quvg‘inda bo‘ladi, Isfandiyorxon ham taxtga chiqqach birodarkushlikni avj oldiradi. Asar voqealariga ko‘ra, tangri qudug‘iga Arabmuhammadxonning ko‘zlari suv yuziga qalqadi, suv qon va yiringga aylanadi. "Shamsiddin xoja quduqqa engashdi, darvesh fonusni pastroq tushirdi. Quduq tomog‘igacha qip-qizil qon. Yuzasida ko‘z qorachirog‘i qalqib yurar, ikki dona go‘dak kokili uzala yotar, dorga osilgan, chopilgan imom, eshon va ko‘p allomalarning boshlari bir-biriga uyqashib ketgan edi"⁴⁷. Romandagi voqealar davomida tangri qudug‘i markaziy obraz sifatida rivojlana boradi va so‘nggida shu obraz orqali voqealar yechimga boradi. Bunday majoziy qahramonga ega bo‘lgan roman o‘zbek adabiyotida ikkinchidir. Asqad Muxtorning "Chinor" romani yuzaga kelganda romanning bosh qahramoni kim, degan bahslar bo‘lgan edi⁴⁸. Kimdir Ochil buva, desa, kimdir bu roman emas, bir cholning sayr tomoshasi orqali ko‘rsatilgan voqealar, dedi. Ammo romanning bosh qahramoni Chinor edi. Biz tadqiqot ob‘ektimiz bo‘lgan "Tangri qudug‘i" romanini "Chinor"ga o‘xshatish fikridan uzoqmiz. Adibning ijodiy jarayoni davomida Abulg‘ozi obrazi ikkinchi darajaga tushadi va tangri qudug‘i birinchi o‘ringa chiqadi. Demak E.Samandarov barqaror ramzlar qo‘llash orqali ham voqea-hodisalar mohiyatini ifodalashga erishgan. Bunday usul adabiyotimiz uchun nihoyatda xarakterli bo‘lish barobarida, ayni o‘rinda ilohiy mavzudagi rivoyat mazmuniga asoslanilgani uchun nihoyatda mos tushgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek asar kompozitsion tarkib jihatdan o‘zgacha shakl kasb etgan. Asarda adib xalq rivoyatlaridan ikki xil yo‘nalishda foydalangan. Birinchisi-rivoyatlarni sujet qatlariga bilvosita, qayta ishlab singdirib yuborish, ikkinchisi esa ularni o‘z holicha bevosita keltirish. Birinchi holatda rivoyatlar-asosiy sujetning tadrijiy qismidan biriga aylansa, ikkinchi holatda mustaqil qistirma epik voqea sifatida talqinning muayyan jihatini mantiqan to‘ldirish yohud izohlashga qaratiladi. Jumladan, asarning to‘rtinchi qismida

⁴⁷ Samandarov E.Tangri qudug‘i. –T.: “Xazina”, 1996. -B.200.

⁴⁸ Asror Samad. Erkin Samandarning oliy martabasi. Tangri qudug‘i. So‘zboshi. –T.: “Xazina”, 1996. -B.12.

Xivaning nomlanishi va paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan xalq og'zaki ijodidan bizga qadar yetib kelgan Som payg'ambar bilan bog'liq rivoyatning berilishi fikrimiz tasdig'ig'a xizmat qiladi⁴⁹. Rivoyatga ko'ra, Som payg'ambar uzoq yo'l yurib, o'z sahobalari bilan bir qum tepaligida tunaydi va otasi Nuh payg'ambari tush ko'radi. Otasi unga shu yerda kema shaklida bir shahar barpo etishi haqida bashorat qiladi. Sahobalar yeng shimarib, ishga kirishib ketishadi. Oldin quduq qaziladi. Suvini ichib, mazasini totib ko'rib: Xey, voh, deydilar. Shu tariqa shahar Xeva deb nomlanadi va barpo bo'ladi. Suvda suzayotgan kemaga o'xshatilgan Xiva zamon to'polon-u dovullaridan chayqalmasin deya Oллоh shaharga langar o'rnida Pahlavon Mahmudni yaratganligi aytiladi. Asarning yana boshqa o'rinlarida Oq shayx bobo olovxonasi bilan bog'liq voqealar, xalq ushbu olovxona tafti ila yashashi va Oq shayx boboning Arabmuhammadxon bilan bo'lgan g'oyibona suhbat haqidagi rivoyat keltirilgan. Bundan tashqari bashoratgo'y Shamsiddin xoja va uning bashoratlari tufayli yuz bergan voqealar, uning Bibi Nur deb atalgan farishtasimon ayol bilan bo'lgan g'ayri tabiiy uchrashuvi, ayniqsa shayxning Rasuli akramning muborak jamollarini ko'rishga muyassar bo'lishi kabi holatlar asar dramatisini va sujet dinamikasini kuchaytirish, mazmunni teranlashtirishga xizmat qiladi. Roman voqealariga ko'ra shayx Shamsiddin xojaga bibi Nur ena so'nggi bor ko'rinish beradi va unga endi "janob Rasuli akramning muborak jamollariga mustahiq" bo'lishini aytadi. Shamsiddin xoja tuni bilan toat-ibodat qiladi. Ertalabga yaqin hujraning toshi ko'tarilib, osmon bilan qo'shilib ketadi. Natijada porloq nukralar orasida mukarram Siymo namoyon bo'ladi. "O'rta bo'yli, (biroz o'zunga moyil), ikki yelkalarining o'rtasi keng bo'lib, zulfi muboraklari ko'p va ikki quloqlarining yumshoqlariga tushgan, ustlarida bir juvra qizil libos (ya'ni rido' va tungi chodirlari), peshonalari keng va kushoda, qoshlari egilgan bo'lib, ingichka va qalin va bir-biridan alohida va qo'shilmagan, muborak burunlari biroz baland va qirralik soqollari katta va qalin, muborak ikki hadlari ila keng, dandoni muboraklari mayda va yaltirab turgan, oldingi tishlari bir-biridan

⁴⁹O'sha manba. –B. 32.

alohida, muborak bo‘yinlari oqlikla kumush kabi, ikki bilaklari uzun, kaftlari kushoda, libosdan tashqari turgan uzvlari nurlik nihoyatda duraxshon!. " Adib Muhammad alayhissalomga berilgan mazkur tavsifni imom at-Termiziyning "Shamoili Muhammadiya" kitobidan olganligini Abulg‘ozi Bahodirxon aytib o‘tgan⁵⁰. Rasuli akram Shamsiddin xojaning nazarini afsonaviy quduqqa qaratadi. Xivak qudug‘ida suv o‘rnida qon balqirdi. Shayxning nazarini quduqning o‘ng tarafidagi chuqurga qaratadi. Chuqurda Arabmuhammadxonning boshi kesilgan tanasi ko‘mib tashlangan edi. Shayx va uning shogirdlari chuqurni qazib, jasadni olishadi va uni yuvib, mo‘miyolab qaytadan qabrga qo‘yishadi. Qabr joylashgan hudud esa Xontepa deb atala boshlanadi. Xullas, shu kabi rivoyatlar asarning mag‘ziga singdirib yuborilgan. Roman asar sujetining umumiy oqimida rivoyatlarni tarixiy material va real voqelik tarkibiga singdirib yuborish ustivordir. Umuman, E. Samandarovning Xorazm tarixi haqidagi ushbu romani tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima sintezining xolislik haqqoniylik va yangi tafakkur tamoyili asosida yaratilgan asardir. Mazkur roman muallifning tarixiy mavzudagi badiiy asarlarining mantiqiy davomi, yirik namunasi sifatida maydonga kelgan. Ushbu asarda tasvirda haqqoniylik me‘yoriga intilish ustunligi, sujet ko‘lamdorligi, xalq rivoyatlarini tarixiy voqelik qatlariga singdirib yuborilganligi, Oq shayx bobo va Shamsidsin xoja, Najmiddin va Muhiddinlarning valiylik karomati, asar qahramonlarining islomiy e‘tiqodlari talqiniga kengroq o‘rin berilgani bilan ajralib turadi. Real tarixiy voqealar tasviri bilan turli tuman ilohiy mazmundagi rivoyat va afsonalarning o‘zaro chatishib ketishi, taxayyulga erk berilishi jihatidan bunday izlanishlar Ch.Aytmatov va G.Markes uslubiga yaqin turadi. Muallif hikoya qilish samimiyatini ta‘minlashda o‘tmish manzaralari va xalq donishmandligi pardasiga o‘ralgan real voqelik lavhalaridagi o‘ziga xos uslub romanning ishonchlilik darajasini oshiradi. Adib "Tangri qudug‘i" romanida ilohiy mazmundagi kiritmalardan foydalanar ekan, goh uning shakl va mazmunini to‘la saqlaydi,

⁵⁰ Samandarov E. Tangri qudug‘i. –T.: "Xazina", 1996. -B.199.

gohida esa bunday kiritma mazmuni orqali o'z falsafiy fikr-o'ylarini izohlaydi. Ijodiy fantaziyani boyitish, taxayyul ufqlarini kengaytirishga erishadi. Yozuvchi rivoyatlar mazmuni bilan qahramon shaxsiyati, ruhiyat iqlimi, intilishlari mohiyatini uzviy tarzda tutashtira oladi. U diniy-ilohiy ma'nodagi rivoyat mazmunini roman to'qimasining uzviy bir bo'lagi sifatida talqin qilib, ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga erishgan, natijada kompozitsion mukammallik va syujet izchilligi ta'minlangan.

2.2. Arabmuhammadxon bilan bog'liq voqealar tasviri

Ijodkorning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga intilish hamisha adabiy tanqidchilikdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki ijodiy individuallik san'atkor merosining abadiyligini belgilovchi bosh mezondir.

Yozuvchining ijodkor sifatida, yetuk san'atkor sifatida shakllanishida tug'ma iste'dodning roli ayniqsa ko'pdir. Iste'dod ijodiy imkoniyatlar yig'indisi, shaxsiy qobiliyatning ifodasi tarzida namoyon bo'ladi. Biroq uning ro'yobga chiqishi, kamol topishi shart-sharoit bilan bog'liqdir. Tabiiyki, iste'dodning shakllanishi va tarbiyalanishida ijodkor tug'ilib o'sgan muhit, etnogenezis, hatto bolaliklari taassurotlar, keyinchalik boshidan kechirganlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham haqiqiy ma'noda kamol topgan iste'dodni o'z zaminidan uzib tekshirib bo'lmaydi. Erkin Samandar Xorazm tarixi bilan bog'liq uzoq izlanishlarning samarasi bo'lgan "Ajodlar qilichi", "Tangri qudug'i", "Sulton Jaloliddin" singari tarixiy mavzudagi asarlari bilan o'zbek adabiyotini o'ziga xos tarzda boyitdi.

Yozuvchining tarixiy asarlarini kuzatar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, adib tarixga o'zi yashayotgan zamonasi, davri voqea-hodisalari zamiridan turib nazar tashlaydi. Tarixni buzib ko'rsatmaslikka, o'z istagiga bo'ysundirmaslikka, ideallashtirmaslikka, inkor etmaslikka harakat qiladi. Xalqimiz tarixining nurli sahifalarini tashkil etuvchi ota-bobolarimizning ezgu amallari to'la-to'kis ko'rsatishga urinadi. Adabiyot va san'at zimmasidagi muqaddas vazifani shu sohaning kamtarin bir vakili sifatida dildan his qiladi. E.Samandarovning "Tangri

qudug‘i” romanida umumiy tarixiy fon qo‘ynida yozuvchi fantaziyasining mevasi hisoblangan voqealar sodir bo‘ladi, adabiy personajlar harakat qiladi. Ushbu asarda XVII asrdagi Xorazmda ro‘y bergan yirik ijtimoiy voqealar, muhim muammolar tilga olingan va fantaziyaga, badiiy to‘qimaga erk berilib, muvaffaqiyat bilan tarixiy faktlarga izchil yondashgan holda voqealar tasvirlangan. Darhaqiqat, adabiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, mutlaqo yozuvchi fantaziyasiz umuman badiiy asar, shu jumladan tarixiy roman bo‘lmaganidek, tarixiy faktlarga, materiallarga mutlaqo murojaat qilmagan tarixiy roman ham yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Hamma gap tarixiy roman muallifi bu ikki elementdan - tarixiy fakt va fantaziyadan, badiiy to‘qimadan mohirlik bilan foydalanishiga va badiiy asar to‘qimasida ular tanosibligini, me‘yorini saqlay bilishiga bog‘liq⁵¹.

Romandagi har bir lavha va har bir timsolning muayyan ibtido hamda mantiqiy intihoga egaligi asarning yozuvchi ko‘ngli qa‘ridan chiqqanligini, u bitikning har bir unsuri ustida astoydil o‘ylanganini anglatadi.

Romandagi asosiy timsollardan biri Arabmuhammadga xos jihatlar asarda ta’sirli tasvirlangan. U xon bo‘lishiga qaramay, hayoti davomida ko‘pincha manfaat va amaliyot kishisi emas, balki ko‘ngil odami sifatida yo‘l tutishi ishonarli ko‘rsatiladi. Ko‘nglining nozikligi odamga, ayniqsa, o‘z yaqinlariga cheksiz ishonch ko‘pincha uni shafqatsiz harakatlardan, hukmdorga xos qat’iyatdan tiyib turadi. Xon o‘zini, avvalo, ota deb bilgani uchun ham otabezor o‘g‘illariga qarshi shafqatsiz chora ko‘rmaydi. Uning suyukli o‘gli Abulg‘oziga qarata: “Abulg‘ozi, fikr qil, ular ham xuddi seningdek o‘g‘limdir, pushti kamarimdan bo‘lgan farzandimdir. Qandoq qilib senga ularni o‘ldir diyurmen»-tarzidagi iqrorida Arabmuhammadxon shaxsiga doir yetakchi sifatlar namoyon bo‘ladi. U noshud va tadbirsiz ham, ko‘ngli bo‘sh ham emas. Lekin xon taqdirining har qanday sinoviga tayyor bo‘lsada, o‘z o‘g‘illarining yovuzliklariga qarshi kurashga hozir emas. U o‘g‘illari isyonini bosish yo‘llaridan ham ko‘ra, Habash bilan Elbarsni bunday qabohatga undagan omillarni topmoqqa urinadi. U bolalarininf yovuzliklari uchun,

⁵¹ Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent,: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.-B.56.

avvalo, o'zini aybdor deb biladi. Bu hol xonning: "Senlar vujudimdan sizib chiqqan bir tomchi nutfa-yiringdan yaralgansanlar. Mening ko'zlarimni ko'r qilgan senlarning millaring emas, balki o'z yiringlarimdur. Men o'z taxtida o'z yiringlariga belanib jon berayotgan hukmdormen", -tarzidagi so'zlarida yaqqol ko'rinadi. U birovlardan ayb qidirmaydi, o'zini taftish etadi, o'zgalarning jinoyatida ham o'z xatosini ko'radi.

Yozuvchining tasvir mahorati shundaki, u har bir timsol ruhiyatining turli hayotiy vaziyatlarida turlicha namayon bo'lganligini to'g'ri aks ettira bilgan. Imkon borida o'ziga qarshi bosh ko'targan Habash va Elbarsga chora ko'rishni istamagan Arabmuhammadxon ular tomonidan qatl etilayotgan paytda: "Ixtiyorimda bitta imkonim qolibdur, ya'nikim senlarni oq qilmoq huquqi. Ilgimdagi bu so'nggi o'q shunay bir qudratga egadurkim, oning zaxmidan jon bergan farzand abadul abad do'zax o'tlarida yonur, yillar o'tar zamonlar o'tar, avlodlar ketidan avlodlar kelur, ammokim bu o'q tovushlari quloqlaridin quloqlariga yetib, odamlarni xushyorlikka otalarni uyg'oqlikka, farzandlarni insofga, mehr-u shafqatga da'vat etur. Senlarning nomlaringni eshitganlarida odamlar jirkanurlar, senlarning ruhlaringga otiladigan nafrat toshlarining adosi bo'lmas!» -tarzida qat'iyat ko'rsatadi. Bu so'zlarda zo'rakilik personaj tabiatiga nomuvofiqlik yo'q. Chunki xon o'qizlikka yon berishga, dushmanidan cho'chishga odatlanmagan o'ktam shaxs. Shuning uchun ham songgi damda qo'llarini ota qoni bilan bo'yagan farzandlarini qarg'amasdan turolmaydi. Lekin salgina nari borib o'limi oldidan yaratganga qarata: "Parvardigor, noshukr og'illarim gunohida o'tgaysen, razolat botqog'idan chiqarib, diyonat yo'liga boshlagaysen, ota kechira olmagan ul ikki noshud og'ilni o'zing kechirgaysen...», -tarzida qilgan iltijosida ota ruhiyatining o'zgacha yana bir qirrasini namoyon bo'ladi. Hayotining so'nggi damida o'z o'limiga sabab bo'layotgan o'z og'illari gunohidan o'tishni Oллоhdan so'ray olish tasviri xon shaxsiyati balandligini aks ettirishi jihatidan tengsiz ahamiyatga ega. Bu tasvirlar ayni bir odam tabiatiga xos jihatlarining turli vaziyatlarida turli yo'sinlarda namoyon bo'lishini ko'rsatganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tangri qudugʻi» romanida E. Samandar hayotiy parallellardan oʻrinli foydalangan. Jumladan, qotil oʻgillarini kechira olgan Arabmuhammadxon timsoli azbaroyi poygada oʻrnatilgan tartibni buzgan uchungina oʻz oʻgʻlini oʻldirtirib yuborgan Eron shohi Abbosga muvoziy tasvirlanganligi har ikki timsolga xos maʼnaviy sifatlarning toʻlaroq, ochilishiga xizmat qiladi. Xonning soʻzlash tarzidagi bir qadar koʻtarinkilik, tantanavorlik ham timsolning tabiatiga muvofiq keladi. Aslan koʻngil kishisi boʻlgan noziktaʼb Arabmuhammadni xonlik martabasi yanada oliyjanoblashtiradi, yuksaltiradi. Lekin ayni shu hukmdorlik rutbasi shoh Abbos bilan Isfandiyorni shafqatsiz va yovuz kimsalarga aylantiradi. Romanda martabasi shaxsidan baland turgan kimsalar bilan shaxsiyati rutbasidan yuksak inson oʻrtasidagi farq shu yoʻsinda koʻrsatiladi. Bir xil sabab turlicha oqibatlariga olib kelishi mumkinligi bu ayni odamning feʼlidan ekanligi asarda jonli personajlar hayoti misolida ishonarli aks ettirilgan.

Yozuvchi sahro yirtqichlari qudratli hukmdori bolmish hukmdori Yildirim bilan undan tarqalgan va uni oʻldirgan it Boʻrizod qismatini Arabmuhammadxon bilan Habash, Elbars taqdiriga muvoziy qilibgina qolmay, balki shu qismatlariga dahldor etib tasvirlash bilan katta estetik samaraga erishgan. U shu yoʻl bilan ham Habashning qutirishi sababini ham koʻrsatgan, ham palagi toza boʻlmagan xonlikning aynan yaratuvchisiga chang solishini, bunga uning qonidagi betayinlik sabab ekanini ifoda etgan.

Adib romanda ramziy ishoralar tasviridan ham oʻrinli foydalangan. Asardagi tangri qudugʻi, Bibinur ena, Hazrati Sulton Uvays, Xoʻja Shamsiddin timsoliga bogʻliq hayajonli tasvirlar teran ramziy maʼnoga ham egadir. Tangri qudugʻining turlicha holati qaror topgan adolat yoki toptalgan haqiqatni aks ettirsa, Bibinur ena timsoli kelishmaslik va oʻzaro janjallar tufayli ayoq qoʻliga kishan solingan Vatan hamda millatni ifodalaydi. Paygʻambarimiz aziyat chekkanligi tufayli oʻzini ayamay jazolagan va butun hayotini yaratgandan rasulning ummatlari gunohini soʻrab olishga bagʻishlangan Sulton Uvays hazratlari timsoli rahmdillik, kechirimlilik va qilingan gunoh uchun toʻlovning shartligi ifodasi tarzida ilgʻanadi.

Romandagi bir jihat sinchkov o'quvchining e'tiboridan chetda qolmaydi va uni bir qadar bezovta qiladi. Chunonchi, asarning ko'p o'rinlarda el-u yurt tarixidagi dahshatli davr o'tib uning o'rniga adolat qaror topadigan kunlar kelishiga ishora sezilib turadi. Muallif atay o'quvchiga barcha najot Abulg'ozidan ekanini bildirishga urinayotgandek tuyiladi. Shuning uchun ham asarda esda qoladigan e'tibor tortadigan biror ish qilgani ko'rsatilmaganiga qaramay, muallif Abulg'oziga xayrixohligi sezilib turadiki, bu romanning tasvir maromini bir qadar buzadi. Shuning uchun romanning nomi asar mohiyatiga mos emasday taassurot qoldiradi. Yozuvchi roman syujeti rivojini ta'minlagan kishilar yoki ularning xatti-harakatlari nomi bilan atashni istamagan. Ayni paytda muallif asar nomi darajasiga chiqarishni xohlagan (Abulg'oz) tabiati va faoliyati qamrovi yetarlicha tasvirlanmagan. Shuning uchun ham ayni voqealarni tragediya janridagi asariga mavzu qilib olganda, adib unga "Arabmuhammad Bahodirxon" deb nom qo'yilishi to'g'ri bo'lgan.

"Tangri qudug'i"da o'quvchi o'tmish hayotning tinmay o'zgarib borayotgan qirralarini ko'radi, davr ziddiyatlarining guvohi bo'ladi. Tarixiy voqealarni o'zgarmas, turg'un holda emas, balki doimo o'zgarib boradigan holda tasvirlanishi hozirgi kunimiz uchun ahamiyatlidir. Muhimi shundaki, muallif o'tmishning fojiali sahifalari aks ettirilgan bu xil asarlarda qadimda shunday bo'lganini ko'rsatish bilangina kifoyalanmaydi, balki kechaning zamiridan bugunning ildiz -u belgilarini qidiradi va topa biladi. Erkin Samandarov asarlariga alohida ta'sirchanlik baxsh etadigan asosiy jihat shundan iboratdir. Adib asarlarining qahramonlari ma'naviy dunyosining milliyligi bilan ajralib turadi, qahramonlar tasvirida mahalliy kolorit talqini yetakchi ahamiyat kasb etadi; bu kolorit ayni paytda milliylik xususiyatlarini o'zida jamlovchi fenomen darajasiga ko'tariladi. Erkin Samandarov ijodida so'zni o'rinli qo'llash, uning turfa semantik xususiyatlarini his etish iqtidori kuchli. Yozuvchi asarlarining kompozitsion jihatdan ixchamliligiga sabab badiiy niyatning samimiy tug'ilishi va aniq bir shaklda ifodalanishidir. U g'oyat kuzatuvchan va mushohadakor yozuvchi va albatta, bu jihati muallif asarlarining hayotiy bo'lishiga imkon tug'diradi

2.3. Abulg‘ozi Bahodirxon, Isfandiyor, Habash, va Elbarslar xarakterida davr va shaxs munosabati ifodasi

E.Samandar bir she‘rida: «Mening yuragimda bordir suvratlar aksari chizilgan shu‘lalar bilan»,-deb yozadi. Yozuvchining o‘tmishni aks ettirishga bag‘ishlangan asarlarida ham ana shu shula yolqinlanib turadi. Tarixning eng fojiali qonlarga g‘arq bo‘lgan holatlari tasvirlanganida ham adib odam tabiatidagi yorug‘ jihatlarni, uni ulug‘laydigan ezgu sifatlarni ko‘radi va aks ettira biladi. E’tiborga loyiq jihati shundaki, u buni atay asariga yorug‘lik kiritish uchun qilmaydi, balki tasvirga olingan inson fe‘lidan kelib chiqqan holda tabiiy ifoda etadi. “Tangri qudug‘i” romanida yozuvchi fantaziyasi - badiiy to‘qima mahsuli bo‘lgan o‘rinlar ko‘p. Biroq asardagi eng hayajonli, maftunkor o‘rinlar “tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojealar, sujetlar”dir. Arabmuhammadxon va uning noqobil farzandlari - Habash va Elbars sultonlar orasida onalari Gulsumbonu bahonasida boshlangan qonli intiqom, Arabmuhammadxonning taxtidan chetlatilishi, ta‘qib ostiga olinishi va nihoyat ikki ko‘ziga mil tortilishi: ikki noqobil farzandning fojeali qismati - Elbarsning tiriklayin yerga ko‘milishi, Habashning qutirib chekkan azoblari, u tushgan panjarali arava bilan birga o‘tga yoqilishi, shuningdek, mustabid shoh Abbosning poygada adolatsizlik qilgan o‘g‘li Safo Mirzoni o‘limga mahkum etilishi - romanda qalamga olingan bu kabi hayajonli, dramatik tarixiy voqealarni yozuvchi mahorat bilan tasvirlab bergan. Xullas, yozuvchi tarixiy shaxslar hayotini, tarixiy dramalarni butun dahshatlari bilan badiiy to‘qimalardan unumli foydalangan holda tasvirlagan.

Parallelizm poetik (stilistik) usullardan biri bo‘lib, ikki yoki undan ortiq hodisa, narsani yonma-yon qo‘yish orqali poetik mazmunni ochishga xizmat qiladi⁵². Poetik fikrni konkretlashtirish, tasvirning jonli va yorqin bo‘lishiga erishishda zidlash hamda muqoyasa qilish muhim o‘rin tutadi. Asosan xalq poeziyasiga xos bo‘lgani bois bo‘lsa kerak, folklorshunosligimizda parallelizm va u bilan bog‘liq masalalar birmuncha o‘rganilgan. H. Zarif, M. Alaviya, B.

⁵² Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент, 1983. 235-бет.

Sarimsoqov, S. Ro‘zimboyev, A. Sharopov, Sh. Turdimov, F. Rayhonov, M. Yoqubbekovalarning ishlarida bu holni kuzatamiz. D. S. O‘rayeva esa o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida parallelizm hodisasining qo‘llanilishini maxsus tadqiq etgan⁵³. Parallelizm tasnifotida alohida o‘rin tutuvchi uning kompozitsion turi kinna matnlari, ertak, doston, hikoya, qissa, roman janrlarida ham keng uchraydi, syujet chiziqlarining parallel kelishidan tarkib topadi. U xalq lirik qo‘shiqlarining sujetli namunalaridagina uchraydi. Bunda u bir necha to‘rtliklarni mazmunan bir-biriga bog‘labgina qolmay, voqeabandlikning yaxlitligini ham ta‘minlaydi.

E.Samandarning “Tangri qudug‘i” tarixiy romanida tasviriy usulning asosiy syujet liniyasiga nisbatan parallel berilishi uning badiiy qimmatini va ta‘sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Yozuvchi qiyosiy manba sifatida xalq e‘tiqodlari va tasavvurlaridagi hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan ramziylikka asoslangan (U Arabmuhammadxon, Abulg‘ozixon, Anushaxonlarning hukmdorlik davrini qalamga olish orqali bitta sulolaning boshlanishi, parvozi hamda inqirozini ko‘rsatishni maqsad qilgan). Real voqealar mazmuni bilan qiyosiy ijtimoiy-maishiy muammolarni izohlashdek aniq badiiy-estetik vazifani bajargan kompozitsion jihatdan parallel bir syujet-butun sahro hokimi bo‘lgan Bo‘ri (Yildirim, ya‘ni Chaqmoq)-sahro hokimi. Habash sulton - hukmdorning noqobil farzandi. Bo‘rizod-yirtqichlik va hayvonlik xislatlari ustuvor maxluq, bo‘rining zurriyodi.

Bo‘ri totemistik qarashlarga ko‘ra urug‘larni birlashtirish yo‘lidagi intilishlarni aks ettiruvchi Ota sanalishi arxeologik manbalar asosida etnograf va folkloristlar tomonidan e‘tirof etilgan. Shuningdek, It totemi ham qadimgi ajdodlar obrazini ifoda etadi. Anglashiladiki, parallelizmni yuzaga keltiruvchi qiyosiy manbani tanlashda muallif tasodifiy yo‘ldan bormagan. Ramziylikka daxldor ma‘nolarining ochilishi roman matnidagi syujetning g‘oyaviy-estetik qimmatini

⁵³ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. Тошкент, 1978; Рузимбоев С. Идейнохудожественные особенности узбекских народных песен Хорезмского оазиса. АҚД. Ташкент, 1971. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. АҚД. Ташкент, 1987. Якубекова М. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных колыбельных песен “Алла”. АҚД. Ташкент, 1990. Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг характер ва бадий композицион вазифалари. НДА. Тошкент, 1993.

aniqlashga ko‘maklashadi. Ramziy syujetini nechog‘lik qadimiyligi ham muhim va ishonchlilikni ta‘minovchi omil ekanligini ta‘kidlash o‘rinli. Chunki ramziy tasvirning nechog‘lik mukammal va muvoziy bo‘lishligi real tasvirning shunchalik yorqin ochilishini ta‘minlaydi.

Arabmuhammadxon Bo‘rizodni yoshligidan tarbiya qiladi. Shu boisdan u xon xazratlariga vafodor. Lekin xon o‘z jigarbandlari Habash va Elbarsni ham oq yuvib, oq taragan edi-ku? Nega u nobakorlar o‘z padariga qarshi bosh ko‘tardilar? Biror o‘rinda ota tomonidan xatolik o‘tdimikan? Yaratganning xohishi ila yaxshi otadan yomon, aksincha, yomon otadan yaxshi farzand dunyoga kelishi mumkin. Xon farzandlari noshukurli va razolatining ildizlari esa ancha teran. Tarbiyaning noqosligi-yu qonning buzuqligida. Biroq ota ikkala o‘g‘lini-da nobud etishga qo‘li bormaydi. Hatto ikki aka-ukaning “ko‘zini moshday ochib qo‘yish”ga izn so‘ragan Abulg‘oziga qarata: “O‘z jigarbandimni qanday o‘limga hukm qila olaman?”-qabilida javob beradi. U jaholat iskanjasidagi noshud o‘g‘illar gunohini mag‘firat qilishni parvardigordan iltijo qiladi. Ularning razolat botqog‘idan chiqib, diyonat yo‘liga qadam qo‘yishlarini xohlaydi. Shu kabi holatlarni nazarda tutgan U.Normatov roman haqida to‘xtalar ekan: “...asardagi eng hayajonli, maftunkor o‘rinlar tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojialar, syujetlardir”,-deb e‘tirof etadi⁵⁴. Rang-barang syujet yo‘nalishlarini esa “qiziqish bilan o‘qiladi”,deb baholaydi. Yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo‘lgan yondosh sujetlarning kompozitsion paralelizm uchun qo‘llangan badiiy tasvir usuli ekanligiga yetarlicha e‘tibor qaratmaydi. Bizningcha, E.Samandarov tayyor xulosalar chiqarishga shoshilmagan. Muammoli vaziyatlar yaratish, kitobxonni voqealar oqimining shunchaki tomoshabini bo‘lishlikdan asrash va mushohada qilishga chorlagan. Shu maqsadda tarixiy shaxslar hayoti va tarix dramalarining daxshatlariga parallel tarzda majoziy sujetni taqdim etadi, masala mohiyatiga teranroq qilish, sharqona hikmat, diniy-islomiy aqidalar bilan romanni ziynatlashga urinadi.

⁵⁴ Normatov U. Умидбахш тамойиллар. Тошкент, 2000. 62-бет.

Na bo‘ri, na it qotillikni sodir etib, Yildirimning damini kesgan Bo‘rizod esa o‘zi nobud etgan jon bir vaqtlar o‘zini dunyoga keltirganini, aynan shu bo‘ri ota bois biron itga nasib etmagan kuch-quvvatga ega bo‘lganligi his etmagan bo‘lsa, ajab emas. Chunki u na bo‘ri, na-da it- itbo‘ri edi. Yildirim ham Bo‘rizodni o‘z izmiga solmoqchi, yo‘rig‘iga yurgizmoqchi bo‘lgan, o‘zaro “muzokara”ga kirishishni istagandi. Bo‘rizoddaqa ikki-uchtasiga yetadigan kuchini ham, jon oluvchi hunarlarini ham ishlatmay, o‘zini deyarlik himoya etmay qo‘ygan Bo‘ri ham otalik hissini teran tuyadi. Necha yillar sahroga “podshohlik” qilgan Yildirim bir zarb bilan Bo‘rizodni ustidan itqitib tashlashga kuch yetgani holda o‘z bolasiga topshiradi.

E.Samandarov kitobxonning muallif bilan faol aloqaga kirishini ta’minlaydi, uning mushohada qobiliyatini oshirib, o‘zaro muloqat vaziyatini vujudga keltirishga urinadi. Chunki “...badiiy asarning butunligi faqat g‘oyaning birligi, qatnashuvchi shaxslarning ishlaganligi kabilarnigina emas, balki muallifning butun asarga singdirib yuborgan voqealikka nisbatan o‘z munosabatining ravshanligi va aniqligidan iborat. Muallifning romanda tasvirlanayotgan hayotiy muammolar to‘g‘risida hamisha ham o‘z fikrini ochiq aytavermasligining sababi ham o‘sha fikrni o‘quvchining o‘zi anglab yetishi uchun imkon yaratish niyatiga daxldor.

Bo‘ri instiktiv tarzda bo‘lsa-da farzandiga bo‘lgan mehr-shafqat hissidan begona emas ekan, o‘ylovchi, fikrlovchi tarbiyali zot bo‘lgan inson farzandi Arabmuhammadxon uchun bu tuyg‘u nechun begona bo‘lsin? Tariximizda o‘z noqobil farzandini ayagan mehribon otalar kammi? Birgina Mirzo Ulug‘bekning Abdullatif Mirzoga nisbatan beqiyos mehr-adog‘ini olaylik. Odil Yoqubovning „Ulugbek xazinasini“, P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” singari romanlaridagi alloma Ulug‘bek ruhiy to‘lqinlarini eslaylik. Beixtiyor E.Samandarov yaratgan Arabmuhammadxon taqdiri tasvirlarining ularga naqadar vobastaligida ayrim hollarda ularning qiliqlariga loqayd va bee’tibor otaning gunohlari haqida ham goh oshkor, goh ramziy tarzda ishoralar qiladi.

O‘z otasini ta‘qib ostiga olib, taxtdan chetlatgani yetmaganday ko‘ziga mil tortib, vaxshiylarcha o‘ldirishi evaziga padarkushlarga qarshi ota o‘z ixtiyoridagi eng so‘nggi imkonni qo‘llaydi. Arabmuhammadxon qo‘lidagi bu so‘nggi o‘qning qudrati tufayli asrlar osha Elbars va Habash nomini eshitganda odamlar ijirg‘anadilar, nobakorlar ruhiga otilgan nafrat toshlarning adog‘i yo‘q. Oqpadarlar taqdiri otalarni uyg‘oqlikka, farzandlarni insofga, mehr-shafqatga da‘vat etadi. Intiqom tufayli sal o‘tmay tiriklayin yerga ko‘milgan Elbars quturish kasaliga muhtalo bo‘lib, so‘ngsiz azoblarga giriftor bo‘lgan. Habashning o‘tga yoqilishini kuzatar ekanmiz, beixtiyor o‘yga tolamiz. Ajabo, qalbi o‘ksigan ota duoibadining natijasidami bu yoxud zalolatga botgan bandasiga Ollahning munosib jazosimi?

Sahroga daydib ketgan Bo‘rizod ham yirtqichlik hayotining girdobiga sho‘ng‘iydi. Yolg‘izlik isjanjasida qolganida unga Yildirimning o‘rni juda-juda bilinadi. Itlar to‘dasiga bas kelolmay, quturish kasaliga muhtalo bo‘ladi, qoni buziladi. Qattiq azoblar girdobida qiynaladi. Taqdirni qarangki, dunyoni tark etar chog‘ida Habash sultonni ham shu kasalga duchor qilishga ulguradi. Bu ko‘hna olamning sir-sinoatlari, bandasiga namoyon jihatlari bisyor. Sog‘lom fikr va tafakkurgina insonni ziynatlaydi. Badiiy tafakkur rivojlanishining mahsuli bo‘lgan turli badiiy tasvir usul va vositalari xalq tafakkuri bilan birga o‘sib, takomillashib boradi.

Ma‘lumki, hayotda turlicha qimmatga va ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar uchraydi. Tarixda ham shunday. Jamiyat hayoti uchun, tarix oqimi uchun xarakterli bo‘lmagan, kam ahamiyatli faktlar va tarixni tashkil qiluvchi, jamiyat hayotining mohiyatini belgilab beruvchi faktlar. Mana shu ikkinchi turli faktlar jiddiy tarixiy romanlardagi badiiy to‘qima uchun asos hisoblanadi.

Abulg‘ozi Bahodirxon qalamiga mansub “Shajarai turk” tarixiy asarining “Arabmuhammadxonning shahid bo‘lgani va Asfandiyorning xon bo‘lganining zikri” deb nomlanuvchi qismida quyidagicha jumlar keltirilgan. “Boqirg‘on ostonasinda Sayid Ota avlodindin bir kishi bor erdi. Nazar xoja derlar erdi. Elbars sulton aning qizin oldi. Ul yolg‘onchi, qalbi ayyor, sipohgarlikning ba‘zi qoidalaridin uquvi bor erdi... Shul kunlar xalqning barchasi otlanib Asfandiyor

sultonning kelgani yaxshi bo'ldi, otasini bilmagan zolimlardan xudoy qutqazdi, (Elbars bilan Habash nazarda tutilayapdi.) deb guruh- guruh Asfandiyor sultonga kela erkandur. Nazar xoja uch yuz, to'rt yuz kishini o'zi birlan olib kelib, elning Asfandiyor sultonga ko'makka kelaturg'on ulug' yo'lining ustinda daryoning labinda tushub, bir tarafi daryo yana bir tarafga o'tkazibdi. Piyoda va otli o'tmasdan Asfandiyor sultonga ko'makka kelaturgan kishining va ba'zisini so'z birlan va ba'zini zo'r birlan o'zini qo'shib aytibtur. "Xudoy ko'rsatmasin Asfandiyor sulton yurt olsa erkagingizni o'lturur va urgachingizni Abo'lxon va Manqishloq turkmaniga buyurur. Ul o'lja qilib olib ketar. Agar mening so'zida yolg'on bo'lsa, tangrining kalomi ursin meni", - deb, har kishining oldinda Qur'ondin bir ont ichibtur"⁵⁵. Yuqorida keltirgan parcha "Shajarai turk" asaridan olingan faktdir. E.Samandarovning "Tangri qudug'i" romani 215-betida keltirilgan voqealar tafsiloti xuddi ana shu dalilga binoan bitilgan "... Shunday deya Nazarxoji Qur'onni qo'liga olib ont ichdi. Kelib chiqishi Sayd ota avlodidan bo'lgan, asli avliyo yurt- boqirg'onlik nufuzli otaliqning Kalomullohdan ont ichishi jadalga minib turgan navkarlarning terini sovutdi". "Xivadan Habashlar yetib kelguncha Isfandiyorga egilgan navkarlarni ushlab turishini hayot-mamot ishi deb bilgan Nazarxoji dargohdagi sipohdorni, Habash va Elbars tarafdorlarini zudlik bilan o'z atrofiga to'pladi"⁵⁶

Yuqorida keltirilgan tarixiy fakt "Tangri qudug'i" romanining ba'zi voqealardagi badiiy to'qimaga asos bo'lgan. Tarixiy romanlar muallifi tarixiy voqealarni o'zicha to'qib chiqarishi yoki to'qib chiqazilgan soxta voqealarni tarix deb talqin qilishi mumkin emas. Tarixning o'z qonuni va buzilmas mantig'i bor. Yozuvchi o'z ishida tarixning mana shu mantiqidan, qonuniyatidan chetga chiqmasligi kerak aks holda asar o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotadi. "O'zbek tarixiy romanining bosh xususiyati uning real tarix bilan hamohangligidir"⁵⁷, - deydi adabiyotshunos olim A.Kattabekov.

⁵⁵ Abulg'oziy Bahodirxon.Shajarai turk. -T.: "Cho'lpon", 1992.-B.166.

⁵⁶ Samandarov E.Tangri qudug'i.-T.: "X azina", 1996. - B.215.

⁵⁷ Kattabekov A.Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.-T., 1992. -B.9-10.

“Tangri qudug‘i” romanini tahlil qilar ekanmiz, adib bu muammoni muvaffaqiyatli hal qilganini ko‘ramiz. Anusha-Niginaning boshidan kechirgan voqealari, Xo‘jamberdi va Enamoylarning sevgisi va Enamoyning ayanchli taqdiri, buxorolik Murtazobeklar oilasining Abulg‘ozi taqdiriga birmuncha ta’sir o‘tkazishlari, Zikriyo begimning hiyla-nayranglari va boshqalar yozuvchi fantaziyasining mahsuli sifatida hayotiy chiqqan. O‘z mazmuni va mohiyati bilan ular tarix mantiqig‘iga zid bormaydi, aksincha asar g‘oyaviy- badiiy yo‘nalishiga to‘kislik, mukammallik bag‘ishlab turadi. Erkin Samandarov shunday badiiy to‘qimalardan unumli foydalanib muvaffaqiyatli badiiy obrazlar yarata olganini ko‘ramiz. Tarixiy romanda badiiy to‘qima masalasiga oid qoidaning yana bir muhim nuqtasi shuki, badiiy to‘qima tarix mantig‘iga, hayotiy haqiqatga mone’ kelishidan tashqari badiiylik qonuniyatlariga ham rioya qilishi shart. Badiiy asar voqealarida tabiiyki, tasvirda samimiyat, kompozitsiyada yaxlitlik va butunlik badiiylik qonuniyatining muhim elementlari hisoblanadi.

Ma’lumki, tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilish yozma adabiyotning muhim qirralaridan biri bo‘lib, asarda tasvirlanayotgan davrga xos va axloqiy boyligini insonparvarlik hamda hayotiylik jabhalaridan turib, ko‘p qirrali tasvirlash imkonini beradi. Sujet to‘qimasida bunday yo‘l tutish qahramonlar taqdiri, ularning o‘zaro murakkab munosabatlari, ichki kechinmalari olamiga chuqur kirib borish, badiiy to‘qimada davr va jamiyat haqiqatini teran ifoda etish garovidir. Zotan, badiiy to‘qima imkoniyatlari tarixiy shaxslar obrazlarini butun murakkabligi bilan ko‘rsatish to‘laqonli adabiy tip darajasida tasvirlash mushkulligini muallif chuqur his qiladi. To‘qima davr haqiqatini keraksiz chizgilardan tozalash, badiiy tasvir ko‘lamini kengaytirish, epik bayonni ta’sirdor shaklga solishga yo‘l ochadi.

Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha Asfandiyor sultonning o‘z inilari Habash va Elbarslar ustidan galaba qozonib, taxtni qaytarib olishida unga Shoh Abbos moziy yordam bergan. Bu xususda Abulg‘ozining “Shajarai turk” asarida keltirilishicha: “Shoh Abbos moziy Asfandiyor sultonga Xuroson etagiga bor, yurtningni talab qil, deb ruxsat berdi. U Durun keldi. Andin Abo‘lxon tog‘ina bordi. Taka va sariqlin yetmish kishi, yovmutdin o‘n kishi qo‘shuldi. O‘zuning uch yuz

navkari bor erdi. Ul vaqtda Habash sulton Amu suvi, qiblaning tarafinda Tus qal'asining ro'barasinda o'lturub erdi. Yarim kechada kelib Habash sultonning evin bosti"⁵⁸, - deyiladi.

“Tangri qudug‘i” romanida muallif bu fikrlarni Abulg‘ozi Bahodirxonni xon qilish bilan cheklanib qolmaydi, uni xayolan boyitadi, tarixiy ma'lumotning yashirin mag‘zini chaqadi. Ana shu tarixiy dalil vositasida davr haqiqatining mohiyatini xarakterlaydigan voqealarni to‘qib, badiiy tasvirni kuchaytiradi. Asfandiyor sulton haj ziyoratiga borish uchun safarga chiqqanida Habash buyrug‘i bilan uni o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. Asarda to‘qima obraz Xo‘jamberdi bu suiqasdni ro‘y berishiga halaqit beradi. Natijada Asfandiyorning hayoti saqlab qolinadi. Shundan keyin haj safari qoldiriladi va Asfandiyor shoh Abbos moziy huzuriga yordam so‘rab borishini o‘ylab qoladi. Ushbu voqea asarda quyidagicha tasvirlangan. “Isfandiyorning yodiga Isfaxon keldi. Bobosi Xoji Muhammadxon otasi Arabmuhammadxon bilan bolaligida Isfaxonga-shoh Abbos moziy oldiga yovdan qochib borishgan edi. Xivani istilo etgan Buxoro amiri Abdullaxon tazyiqidan imdod so‘rashganida shoh Abbos ularning qo‘llab-quvvatlagan, yana kelib taxtni egallashlariga yordam bergan edi. Tag‘in shoh Abbosga bosh egib borishga to‘g‘ri keladi. Madad so‘ralsa yo‘q demas. Tong otmasidan xizmatkorlar o‘choqqa o‘t yoqdilar. Yonma-yon ikki o‘rinda yoqilgan gulxan tillari ko‘kka uriladi. Bomdod namozidan keyin Isfandiyor gulxanga keldi. Xujamberdi navkar, xizmatkorlar o‘rinlaridan turib salomga bosh egdilar”. “Isfandiyor sulton Isfaxonga tunda kirib bordi. Darvozabon shahzodani mahtal qilmadi. Ikki mulozim uni Ali kopi qasri sari boshladi. Yirik-yirik yulduzlari, milt-milt chiroqlari dilni allalaydigan tungi Isfaxon. Bolaligida chiroylari qalbiga muhrlanib qolgan tog‘li, gulli, jilg‘ali manzaralar”⁵⁹.

Ko‘rinadiki, davr haqiqatini o‘zida mujassamlashtirgan har bir tarixiy ma'lumot badiiy to‘qima uchun asos vazifasini o‘taydi va sujet rivoji davomida

⁵⁸ Abulg‘oziy Bahodirxon .Shajarai turk. –Toshkent: “Cho‘lpon”, 1992.-B.162.

⁵⁹ Samandarov E. Tangri qudug‘i. -T.: ”Xazina”, 1996. -B.113.

yanada to'ldirilib, ta'sirchan voqelikka aylanadi. Ayni shu yo'l bilan tarixiy haqiqat yuksaklikka ko'tariladi. Badiiy ijod jarayonida yozuvchining xayol erkinligi, ijodiy fantaziyasi juda katta kuchga ega bo'lib, bu tarixiy voqelikning poetik talqinida ham muhim rol o'ynaydi. Badiiy to'qima vositasida tarixiy voqealar saralanadi, davr ruhini bera oladigan tipik voqelik asarga olib kiriladi. Tarixiy shaxslar xarakterining ba'zi bir tomonlari o'sha davr haqiqatlaridan kelib chiqib, umumlashtiriladi, to'ldiriladi, boyitiladi. Shu tariqa tarixiy haqiqat va badiiy talqin mutanosibligi yuzaga keladi.

Arabmuhammadxon bilan uning otabezor o'g'illari: Habash va Elbarslar o'rtasidagi shafqatsiz to'qnashuv fojiasi aks ettirilgan. 2001-yilda E. Samandar ayni shu voqealarni «Arabmuhammad Bahodirxon» tragediyasida ham tasvirlaydi. Bir tarixiy hodisaning bir adib qalamidan chiqqan ikki adabiy turga mansub asarda aks ettirilishini tekshirish yozuvchining badiiy mahoratini, uning insonga yondashuv yo'sinidagi ichki tadrijni, ayni ijodkorning turli adabiy turlardagi asosiy ifoda tamoyillarini ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, bu hol adabiy tur talabidan kelib chiqib, muayyan tarixiy voqelik va uning ishtirokchilariga yondashuv yo'sinidagi o'zgarishlar kechimini ham yaqqol ko'rsatadi.

E. Samandar «Tangri qudug'i» romanida katta epik janrining imkoniyatlaridan ancha ustalik bilan foydalangan holda Arabmuhammadxon, uning o'g'illari: Isfandiyor, Abulg'oz, Habash, Elbars hamda ularning atrofidagi tarixiy shaxslarni turli rakurslarda tasvirlaydi. Ushbu romanda adibning mahorati syujet qurish va uning qismlarini o'rinlashtirishda to'la namoyon bo'lgan deyish mumkin. Asardagi o'nlab qahramonlarning birortasi yozuvchi nazaridan, ya'ni syujet chizig'idan chetda qolmagan. Ularning hayot yo'li tasviri asarning syujeti rivojida o'ziga xos o'rin tutadi. Ko'plagan tarixiy shaxslar va to'qima obrazlardan birortasining taqdiri ham muallif nazaridan qochmaganidan tashqari, ularning har biri, albatta, syujet rivojida muayyan darajada ishtirok qiladi. Yozuvchi ularning har birini o'ziga yarasha badiiy vazifa bilan ta'minlay bilgan. Romanda "b" tovushining "p", "j"ni «ch» tarzida aytadigan quvonchi, uning Tolib tujjorning baxtsiz qizi Muhayyoga oshiq o'g'li Nurulla, asarda ikki boragina ko'rinadigan

keksa me'mor va o'rta yashar sozanda kabi personajlar o'zining qismatiga ega timsollar tarzida ko'rsatilibgina qolmay, ularning asar qahramoni Abulg'ozini shaxsiyati shakllanishida tutgan muayyan o'rni ham ishonarli aks ettiriladi.

Asarda epizodik obrazlar bosh qahramonlar tabiatini ko'rsatish uchun ilyustratsiya emas, balki o'z hayot yo'siniga ega shaxslar sifatida aks ettirilgan e'tiborga loyiqdir. Romandagi birorta qahramonning taqdiri o'z nihoyasiga yetmay, ora yo'lda qolmagan. Yirik badiiy polotnodagi bir necha o'nlab timsollar tasvirida tizginni ustalik bilan ushlab tura olish yozuvchining mahoratidan dalolatdir.

XULOSA

Erkin Samandar “Tangri qudug‘i” romani orqali tarixiy haqiqatni, ajdodlarimiz tarixini, davrning ko‘p qirrali ziddiyatlarini, o‘tmish saboqlarini yangicha badiiy kashf etishga muvaffaq bo‘ldi. Ko‘pchilik o‘zbek tarixiy romanlaridagidan yozuvchi bu asari markaziga Arabmuhammadxon va Abulg‘ozi Bahodirxon obrazlarini qo‘yib, ularni deyarli bir xil, bosh qahramonlardek yonmayon tarzda tasvirlab boradi. Shu yo‘l bilan u mazkur qahramonlarni mustaqil ong sohiblari, asosiy g‘oyaviy maqsadni ifodalovchilar sifatida tasvir etadi.

Erkin Samandarga eng katta shuhrat keltirgan asar tarixiy romani — “Tangri qudug‘i” bo‘ldi. Adabiy tanqidchilikning bahosiga ko‘ra, “Erkin Samandarning „Tangri qudug‘i” romani markazida Arabmuhammadxon hamda uning o‘g‘illari, ularning taqdirlari, ular yashagan davr turadi. Muallifning xulosalari va umumlashmalari keng, shuning uchun tarixiy materialga ajib aktual ma’no bag‘ishlaydi. Zamonlar osha qilingan sayohat teran falsafiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Romanda tasvirlangan barcha voqealar hujjatlar bilan cheklab qo‘yilmagan.

Erkin Samandar tarixni xuddi ko‘rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlarga uzoq o‘tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo‘ladi. U tarixga bugungi davr nuqtayi nazaridan qaraydi». Bu so‘zlarda Erkin Samandar romanining tub mohiyati ochib berilgan.

Qahramonlar hayoti shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun bosib o‘tgan yo‘li, o‘tmish va kelajagi yaqqol ko‘rinadi. Voqealar sodir bo‘lgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda xilma-xil odamlar to‘qnash keladilar, bu yerda umr bo‘yi davom etgan ziddiyat, mojarolar muayyan intihosiga yetadi, dillarda armon bo‘lib yotgan dard-u hasratlar to‘kib solinadi. Sir-u asrorlar oshkor bo‘ladi, umrlar sarhisob etiladi, muallif personajlarga qo‘shilib, hayot jumboqlari ustida qizg‘in bahslar olib boradi. Yozuvchi fantaziyasining mahsuli bo‘lmish bu hodisalar badiiy haqiqatning go‘zal namunasi, noyob badiiy modeli darajasiga ko‘tarilgan.

“Tangri qudug‘i”dagi syujet katta ramziy — umumlashma xususiyatga ega. Haqiqiy ma’nodagi insonlar, chin zahmatkash daholar bu yoqda qolib, xor-u zor bo‘lib, noqobil farzandlarning taxtni egallashi hamma davrlarga, ayniqsa, mustabid hukmronlar siyosatiga xos tarixning ajib bir sirli jumbog‘idir. Roman ana shu sirli jumboq ustida iztirob bilan o‘ylashga, bahsga undaydi.

Ro‘y bergan adolatsizlik ikki xil taassurot qoldiradi. Charxi kajraftorining xilma-xil o‘yinlarini, jabr-u sitamlarini ko‘p ko‘rgan Abulg‘ozi Bahodirxon bu telba dunyoning mudhish nayranglariga go‘yo beparvodek qaraydi. Isfandiyor esa g‘azab, afsus-nadomatlardan o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi. Bu xildagi ziddiyatli holat ham hodisaning dramasi yanada keskinlashtiradi, bahs ruhini kuchaytiradi.

Arabmuhammadxon bilan xoji Shamsiddinning uchrashuvi, muloqotlar, ko‘ngil rozlari jamiyat haqidagi bahslar ifodasi romanning eng jozibali, huzurbaxsh sahifalarini tashkil etadi. Asarni o‘qiganda siz buni butun qalbingiz bilan his etib turasiz. Garchi uchrashuv yozuvchi ijodiy fantaziyasining samarasi bo‘lsa-da, tarixiy haqiqatga mosdir, chunki ular orasidagi mushtarakliklar bu haqiqatni to‘la tasdiqlaydi.

Arabmuhammadxon taqdirining romandagi talqini ham g‘oyat ibratli. Shunisi xarakterliki, adib bu qahramon umrining ichki dramasi, fojiasini butun keskinligi bilan kitobxonga yetkazadi. Avvalo, ulug‘ maqsadni deb uzoq yillar shaxsiy maylga zid yo‘l tutib yashashning o‘zi ulkan fojia.

Abulg‘ozi Bahodirxon mustabid saltanatning ko‘p adolatsizliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turadi, u shohning yurishlarida qatnashgan, bu o‘lkadagi mislsiz qirgin, zulmlarning bevosita shohidi bo‘lgan... Bularni eslaganda Abulg‘ozi Bahodirxon adadsiz iztiroblar ichida qovriladi, har qadamda saltanatdan jabr ko‘radi — uning eng oddiy so‘rovlari ham saroyda javobsiz qoladi, yaqin kishilarini himoya etolmay qiynaladi, firibgar soxta insonlarning obro‘-e’tibor topishi, do‘stlarining tahqirlanishi — bunday adolatsizliklarning guvohi bo‘lish Abulg‘ozi Bahodirxon uchun cheksiz kulfat, alam-iztirob ekanligi asarda g‘oyatda mohirlik bilan tasvir etilgan.

“Tangri qudug‘i” romanida adib ijodini kuzatib, romanlari asosida uning uslub va badiiy mahorati imkon qadar o‘rganildi. Ishning ayrim bob va fasllarida ijodiy individuallikni paydo bo‘lish omillari; yozuvchi ijodida tarixiy mavzuning yoritilishi; davr va inson qismati tahlili; diniy-mifologik qatlamning roman poetikasidagi badiiy funksiyasi; yozuvchi asarlarida mahalliy va milliy koloritning yoritilishi kabi jihatlar tadqiq etildi. Ishning har ikkala bob va tegishli fasllarda olib borgan kuzatish va tahlillarimiz quyidagi umumiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

- Iste’dodning shakllanishida va tarbiyalanishida ijodkor tug‘ilib o‘sgan muhit, etnogenezis, hatto bolaliklari taassurotlar, keyinchalik boshidan kechirganlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham haqiqiy ma’noda kamol topgan iste’dodni o‘z zaminidan uzib tekshirib bo‘lmaydi. Tug‘ilib o‘sgan muhit yozuvchining shaxsiyatiga muayyan ma’noda ta’sir qiladi va ayni paytda, badiiy asar yozuvchi shaxsiyatini ma’lum darajada o‘zida namoyon etadi. E.Samandarov "Tangri qudug‘i" romanida katta epik janrning imkoniyatlaridan ancha ustalik bilan foydalangan holda Arabmuhammadxon, uning o‘g‘illari: Isfandiyor, Abulg‘ozi, Habash, Elbars hamda ularning atrofidagi tarixiy shaxslarni turli rakurslarda tasvirlaydi. Ushbu romanda adibning mahorati sujet qurish va uning qismlarini o‘rinlashtirishda to‘la namoyon bo‘lgan deyish mumkin. Asardagi o‘nlab qahramonlarning birortasi yozuvchi nazaridan, ya’ni sujet chizig‘idan chetda qolmagan. Ularning hayot yo‘li tasviri asarning sujeti rivojida muayyan darajada ishtirok qiladi. Yozuvchi ularning har birini o‘ziga yarasha badiiy vazifa bilan ta’minlay bilgan.

-Adib "Tangri qudug‘i" romanida diniy-ilohiy mazmundagi kiritmalardan foydalanar ekan, goh uning shakl va mazmunini to‘la saqlaydi, gohida esa bunday kiritma mazmuni orqali o‘z falsafiy fikr o‘ylarini izohlaydi. Ijodiy fantaziyani boyitish, taxayyul ufqlarini kengaytirishga erishadi. Yozuvchi rivoyatlar mazmuni bilan qahramon shaxsiyati, ruhiyat iqlimi, intilishlari mohiyatini uzviy tarzda tutashtira oladi. U diniy- ilohiy ma’nodagi rivoyat mazmunini roman to‘qimasining

uzviy bir bo‘lagi sifatida talqin qilib, ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga erishgan, natijada kompozitsion mukammallik va sujet izchilligi ta’minlangan.

-Erkin Samandarov romanlarining kompozitsion jihatdan ixchamliligiga sabab badiiy niyatning samimiy tug‘ilishi va aniq bir shaklda ifodalanishidir. U g‘oyat kuzatuvchan va mushohadakor yozuvchi. Adibning mushohadakorligi asarlarining hayotiy bo‘lishiga imkon tug‘diradi.

-Yozuvchi ijodidagi o‘ziga xosliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qilgan omillardan biri ijtimoiy hayotdir. Adib kishilarni qiynayotgan dolzarb hamda jiddiy e’tiborni tortayotgan chigal voqea-hodisalarga diqqat qaratgan.

-Yozuvchi qahramonlari tasvirida mahalliy kolorit talqini yetakchi ahamiyat kasb etadi; bu kolorit ayni paytda milliylik xususiyatlarini o‘zida jamlovchi fenomen darajasiga ko‘tariladi.

Umuman olganda Erkin Samandar “Tangri qudug‘i” romanida tarixiy haqiqatni, tarixiy shaxslar taqdirini, davr dramasi, davrning ko‘p qirrali ziddiyatlarini o‘tmish saboqlarini yangicha ta’sirini ochishga, badiiy inkishof etishga muvaffaq bo‘lgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1.1. Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 381 б.

1.2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.

1.3. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

1.4. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир [Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси] // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – 4 авг.

1.5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

1.6. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 489 б.

II. Илмий-назарий адабиётлар

5. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. –Т.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. - В. 184.

6. Abdullaev H. Qadriyat qatralari. –Urganch: UrDU nashriyoti, She’r shukhi. - В. 74-87.

7. Abdullaev H. Xorazm adiblari. –Urganch, 1998. - В. 58.

8. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. –Т.: Fan, 1978. - В. 85.

9. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. –Т.: Fan, 1978. - В. 155.

10. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1989. - B. 13-28.
11. Aristotel. Poetika.-T., 1969. - B. 152.
12. Adabiy turlar va janrlar. 3-jildlik. 1-jild. Epos. -T.: Fan, 1991. - B. 264.
13. Alimov P. Tarixiy shaxs badiiyati. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1981. - B. 564.
14. Boboev T. Hayot materialidan badiiy obrazga.-T.: Fan, 1976. - B. 144.
15. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T.: O‘zbekiston, 2002.
16. Boltaboev H- Nasr va uslub. -T.: Fan, 1992. - B. 105.
17. Genis A. XX asrning yetakchi uslubi // Jahon adabiyoti. 2001. №11. - B. 155-161.
18. Doniyorov X, Mirzaev S. So‘z san’ati. -T., 1962. - B. 261.
19. Doniyorova Sh. Tarixiy mavzu va adib mas’uliyati. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. №5. -B. 46-47.
20. Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. №3. - B. 46-47.
21. Doniyorova Sh. Shukur Holmirzaev hikoyalarining uslubiy o‘ziga xosligi. Filol.fan.nomzod. diss. avt. Toshkent., 2000. -B. 24.
22. Davronova Sh. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. F.f.n.dis.avt. -T., 2004. - B.24.
23. Yoqubov H- O‘zbek prozasida uslub rang-barangligi // O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. -T., 1983. - B.208.
24. Jumanazarov U. O‘zbek folklori va tarixiy voqelik. -T.: Fan, 1991. - B. 171-226.
25. Jumaev 3. Tarixiy rivoyatlar tasnifiga doir. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. №2. -B. 36-39.
26. Zayniddinova A. Tarixiy voqelikning badiiy talqini. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. -B. 90-91.
27. Kattabekov A. Tarixiy material va individual uslub // O‘zbek tili va adabiyoti. 1979. №5. -B. 35-40.
28. Mamajonov S. Uslub, obraz, tasviriy vositalar. // Sharq yulduzi. 1969. 6-son.

29. Mamajonov S. Uslub jilolari. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. -B. 219.
30. Mirvaliev S. Tarixiylik va zamonaviylik. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979. -B. 196.
31. Mirvaliev S. Tarixiy roman tabiatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1971. №1. -B. 15.
32. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. Tarix va adabiy jarayon. -T., 2006.
33. Murodov F. Adabiy asarda tarixiy va to'qima obrazlarning munosabatiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti. 1985. № 2. -B. 52-56.
34. Mirzaev I. Tafakkur va nasr. –Samarqand, Zarafshon. 1993. -B. 192.
35. Mo'minov F. Izlanishlarimdan qatralar. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006. -B. 230.
36. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat, 2000. -B. 109.
37. Normatov U. Bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillari. // O'zbek tili va adabiyoti. 2001. 3-son, -B. 3-9.
38. Normatov U. Adabiy jarayondagi g'aroyib robitalar. // O'zbek adabiyoti va san'ati. 1995. 3-noyabr.
39. Normatov U. Yetuklik. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
40. Pirnazarova M. Roman va uslub. -T.: "Muharrir", 2012. -B. 127.
41. Samandarov E. Sevgi fasllari. Saylanma. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. -B. 144.
42. Samandar E. Yurakka yo'l. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. -B. 17.
43. Samandar E. Hazrati Polvon pir (qasida) –Urganch: Xorazm, 1995. -B. 45.
44. Samandar E. Suyanch. To'plam. –Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi nashri, 2000.
45. Samandar E. Daryosini yo'qotgan qirg'oq. -T.: "Yosh gvardiya", 1989. -B. 318.
46. Samandarov E. Tangri qudug'i. -T.: "Kamalak" - "Xazina", 1996.- B.395.
48. Sattarov M., Kattabekov A. Olis yulduzlar jilosi. -T.: O'qituvchi, 1984. -B. 155-188.

49. Sodiqova R. Tarixiy shaxs va badiiy talqin // O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. №6. -B. 44-47.
51. Qo‘shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. -T.: 1983. -B. 137.
52. Qo‘shjonov M. Qalb va qiyofa. -T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. -B. 142-155.
53. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1983. -B. 376.

Интернет сайтлари

1. <http://ziyonet.uz>
2. <http://natlib.uz>
3. <http://files.school-collection.edu.ru>
4. <http://slovar.lib.ru>
5. <http://ru.wikipedia.org>